



Tadqiqot **UZ**

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 39 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Ergasheva Zulxumor Yuldashevna МАКТАБДА ТАРИХ О‘ҚИТИШ МЕТОДЛАРИ ҚИЙОСИЙ ТАҲЛИЛИ.....	7
2. Musoyeva Muxlisa Jo‘raqulovna МАКТАБЛАРДА ТАРИХ ФАНИНИ О‘ҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ МЕТОДЛАРДАН FOYDALANISH.....	9
3. Xazratqulov Xamza Olimqulovich ТАРИХ ФАНИНИ О‘ҚИТИШДА ТАРИХИЙ РАСМЛАР НАМДА КО‘РGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH.....	10
4. Уқтамувич Санжар Абдурахимов КЎЛТЎСИНДАН ТОПИЛГАН ШАХМАТ ДОНАСИНИ.....	13
5. Усанов Нурали Маманазарович САМАРҚАНД ВАЙРОНАЛАР ЎРНИДА ҚАЙТА РОСТЛАНАВЕРГАН.....	16
6. Эсиргапов Бунёд Ибрагимович ҲУЖЖАТЛАРГА ЯШИРИНГАН МОЗИЙ СИРЛАРИ.....	20
7. Маҳкамova Муқаддам Егамбердиёевна ТАРИХ ФАНИНИ О‘ҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ INNOVATION YONDASHUV	24
8. Тайронов Бунёдjon Рапикович “ОЙНА” ЖУРНАЛИ ТУРКИСТОНДАГИ ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИШДА МУҲИМ МАНБА СИФАТИДА	26
9. Rajabov Feruz Umarqulovich “BOBURNOMA”DAGI AYRIM ONOMASTIK BIRLIKLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI	28
10. Allanazarov Sirojbek Bekchan o‘g‘li QADIMGI XORAZMLIKLARINING DINIY E‘TIQODLARIDA SHOMONLIKNING IZLARI	31
11. Abdurahmanova Diyora Bekmuhamatovna, Aliyeva Nigora Berdiyevna МУHAMMAD RAHIMXON HUKMRONLIGI DAVRIDA XIVA XONLIGI	33
12. Наргиза Шоназарова ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ МУҲИМ ШАРТИ.....	35
13. N.Najmiddinova О‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXINI O‘RGANISHNING SIYOSIY VA IJTIMOIY, ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI	37



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

МАКТАБДА ТАРИХ О‘ҚИТИШ МЕТОДЛАРИ ҚИЙОСИЙ ТАҲЛИЛИ

Ergasheva Zulxumor Yuldashevna

XTV FFIDUM tarix o‘qituvchisi

Tel: 99-638-19-58

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning ma’lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari haqida fikrlarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman. O‘qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya’ni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o‘quvchilar tomonidan o‘sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatida ko‘llaniladigan usullarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: o‘qitish metodlari, tarbiyaviy yo‘nalish, metodik usullar, xronologiya, ko‘rgazmali metodlar

O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlarida ta’lim mazmunini takomillashtirish, uning tarbiyaviy yo‘nalishini kuchaytirish bilan birga, o‘qitish metodlarini ham aktivlashtirish asosiy vazifa qilib qo‘yildi. Endilikda, ta’lim mazmuni insoniyat to‘plagan tayyor bilimlar, ko‘nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o‘shirishini ta’minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o‘zida birlashtirmog‘i lozim. Ta’limning rivojlanish printsiplariga ko‘ra, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilishga o‘rgatish va ularda zarur ko‘nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta’lim mazmuni bilan birga o‘qitish metodlari ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qitish metodlari murakkab muammo bo‘lib, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida oldiga qo‘yilgan mas’uliyatli vazifalarning hal etilishi ko‘p jihatdan uning to‘g‘ri hal qilinishiga bog‘liqdir. Biroq, hozircha o‘qitish metodikasining bu muhim muammosi, xususan tarix o‘qitish metodlari sistemasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Metodik adabiyotda metodistlar tomonidan «Metod», «Metodik usullar» tushunchasi turlicha talqin etiladi va klassifikatsiya qilinadi. O‘qitish metodikasida tarix ta’limi metodlari tizimining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va bu sohada yagona fikr bo‘lmaganligi o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix o‘qitish amaliyotida jiddiy kamchiliklarga olib keldi. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar o‘qitish metodlari va usullarini tanlashda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga faqat tayyor bilim berish, ya’ni ularni o‘qitish (ta’limning bir tomonini)ni ko‘zda tutib, o‘quvchilarning o‘rganishi (ta’limning ikkinchi muhim tomonini)ni uyushtirish, unga rahbarlik qilish, bilish, malaka va qobiliyatlarini sistemali ravishda o‘stirib borish kabi muhim momentlarni e’tibordan chetda qoldiradilar. Shuningdek, o‘qitishning metod va usullarini tanlashda o‘quv materialining mazmunidagi o‘ziga xosliklarni, uning ta’lim-tarbiya vazifalarini, o‘quvchilarning bilimi va malakalarini e’tiborga olib bilmaslik hollari ham shunday jiddiy kamchiliklar jumlasidan edi. Bu hol ma’lum darajada o‘quvchilarning tarix predmetiga qiziqishlari pasayishiga, umumiy ta’lim-tarbiya ishlarining natijasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida amaliyotida, ayniqsa keyingi yillarda o‘quvchilarni tarix predmeti vositasida tarbiyalashda, uni o‘qitishni ilmiy asosda olib borish, ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish sohasida ko‘pgina ilg‘or tajribalar to‘plandi va umumlashtirildi. Belgilab bergan muhim vazifa - tarixiy bilimlarning samaradorligi va sifatini oshirishning muhim sharti va vositalaridan biri bo‘lgan bu ishlar tarix o‘qitish metodlari sistemasini va metodik usullarini ham ilmiy asosda ishlab chiqish va amalda ulardan muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatini beradi. O‘qitish metodlarini ilmiy asosda klassifikatsiyalash masalasi pedagogika fanida o‘qitishning turli bosqichlarida turlicha hal qilib kelindi. O‘qitish metodlari klassifikatsiyasiga ba’zan analiz va sintez, deduktsiya va induktsiya kabi mantiqiy operatsiyalar asos



qilib olinib, o'qitish metodlari induktiv, analitik va boshqa mantiqiy usullar sifatida xarakterlanadi. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish tajribasi shuni isbotladiki, yuqoridagi mantiqiy operatsiyalar o'qitish va o'rganishning barcha bosqichlarida turli xarakterdagi xilma-xil didaktik va metodik vazifalarni hal qilishda ishtirok etsada, mustaqil o'qitish metodlari bo'lib xizmat qila olmaydi. O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. Quyidagi o'qitish metodlarini maktabda darslarda foydalanish uchun tavsiya qilsa bo'ladi: 1) tarixiy faktlarni o'rganish metodlari; 2) xronologiyani o'rganish metodlari; 3) mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari; 4) asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari; 5) sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari; 6) tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari. 60-yillar pedagogikasida o'rganilayotgan fanni bilish manbalari o'qituvchining jonli so'zi, ko'rsatmalilik va tekstlar) ni o'qitish metodlariga asos qilib olishga katta o'rin berildi. O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha klassifikatsiyalash masalasi olimlarning 1966 yilda nashr qilingan asarlarida aniq ta'riflab berildi. 50-yillarning oxirlariga kelib tarix o'qitish metodikasida ham o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga o'quvchilarning bilish manbalari asos o'qilib olina boshladi. O'qitish metodlari quyidagi uch gruppaga bo'linadi: 1) jonli so'z: hikoya, tavsiflash, harakteristika, problemali bayon; 2) ko'rgazmali metodlar: rasmlar va boshqa ko'rsatmali qurollar, doskaga chiziladigan grafik yozuvlar, texnika vositalari va boshqalar; 3) tekstlar bilan ishlash metodlari. O'qitish metodlari klassifikatsiyasiga bilim manbalari va bilish usullarini asos qilib olinishi bilan birga, bilish manbalari didaktik vazifalarga muvofiq o'qitish protsessining asosiy bosqichlarida qay tarifa konkret amalga oshirilishini jadval shaklida beradi. Bu jadval har bir darsda o'tiladigan materialning mazmuniga qarab o'qitishning turli xil metod va usullaridan foydalanish zarurligini aniq ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: TDPU. 2003
2. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi. 2004.



МАКТАBLARDA TARIX FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Musoyeva Muxlisa Jo‘raqulovna

Navoiy viloyati, Qiziltepa tuman

13-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab o‘quvchilariga tarix fanini yanada chuqurroq o‘qitish va zamonaviy metodlardan foydalanish to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy metodlar, ko‘rsatmalar, innovatsion loyihalar, o‘tmish va bugun

Tarix - bu yer yuzida sodir bo‘lgan insoniyatning o‘tmishdagi faoliyati qaydlari. O‘qitish usullari - o‘quvchilarga ta‘lim muhitida ko‘rsatmalar berish uchun ishlatiladigan turli xil printsiplar va usullar.

O‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan usullar o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga yetkazmoqchi bo‘lgan mahorat yoki ma‘lumotlarga bog‘liq bo‘ladi. O‘qitishning eng keng tarqalgan usullaridan ba‘zilari yodlash, darsga qatnashish, o‘qish va gapirib berishdir. Ushbu o‘qitish usullari keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, har bir o‘qituvchining o‘ziga xos o‘qitish usuli mavjud. O‘qituvchilar o‘z uslublariga moslashuvchan bo‘lishlari va ko‘pincha o‘quvchilariga moslashish uchun o‘qitish uslublarini o‘zgartirishlari kerak.

Ta‘limning samarali usullari talabalarning sinfda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan muhim vositalardir. Har bir talaba har xil shaxsiyat va o‘rganish qobiliyatiga ega. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilari uchun o‘qitish usulini tanlashda bir qancha omillarni hisobga olishi kerak. O‘qitish usulini tanlashning ba‘zi bir aniqlovchi omillari orasida talabaning qiziqishi va bilimlari, shuningdek ularning atrof-muhit va o‘quv qobiliyatlari mavjud. O‘qituvchilar, shuningdek, o‘quvchilariga Auditory, Kinesthetic (birgalikda) va Visual kabi turli xil o‘quv metodlaridan foydalanish mumkin. O‘qituvchilar ushbu o‘quv usullaridan o‘quvchilarga sinf topshiriqlarini tushunishlari va bajarishlari uchun foydalanadilar.

O‘qitish usublari ko‘pincha o‘quvchilar ma‘lumotni saqlash va eslab qolish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan dars rejalarini o‘z ichiga oladi. Dars rejaları bilan qo‘llaniladigan turli xil o‘qitish usullarining shakllari tushuntirish, namoyish etish va hamkorlik qilishdir. Tushuntirish ma‘lum bir mavzu haqida batafsil ma‘lumot beradigan ma‘ruzaga o‘xshaydi.

Ta‘lim metodining ikkita asosiy turi mavjud bo‘lib, ular ishtirok etishsiz usul va ishtirok etish usuli bo‘lib, ular asosiy toifalar sifatida qabul qilinadi, ammo ishtirok etmaydigan usullarda ma‘ruza usuli bo‘lgan bitta turdan foydalanish mumkin. Bu aholi sonining ko‘pligi yoki sinf o‘quvchilarining ko‘pligida qo‘llanilishi mumkin.

Quyida asosan tarixni o‘qitishda qatnashishning asosiy usuli sifatida qo‘llaniladigan asosiy o‘qitish usullari keltirilgan;

Hikoyalar berish usuli, bu asosan o‘qitishning asosiy usuli sifatida. Sinfda dars berishda pozitsiyani egallash uchun asosan talabalarni darsni tushunishga jalb qilish uchun ma‘lum mavzuni tanlashga va shu bilan bog‘liq bo‘lgan voqeani aytib berishga qaror qilish kerak.

Dars rejasi va eslatmalarini ishlash sxemasini jadvalga yozish ham muhim omillardan. Ish rejasi, dars rejasi yoki jadvalga rioya qilish kerak emas deb bo‘lmaydi ammo o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun ozgina qolibdan ham chiqib turish darkor. Tarixni o‘qitayotgan har qanday o‘qituvchi uchun u tarixni o‘qitish san‘at ekanligini tushunishi kerak, bu mavzuni aniqlashda juda ijodiy ish tutadigan kishidan bir nechta mavzuni o‘qitishda qo‘llashni talab qiladi, masalan, mustamlaka iqtisodiyoti mavzusi o‘qitish mavzuni o‘qitishdan farq qiladi. Shuning uchun unga mavzu va mavzuning xususiyatiga qarab qo‘llaniladigan turli xil usullarni yaratadigan ijodkor o‘qituvchi kerak. Mustamlakachilikni o‘rnatish mavzusida o‘qituvchi hikoyani aytib berish usulidan foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bello J. Y. (1981). O‘qitishning asosiy printsiplari. John Willey va Sons Ibadan.



TARIX FANINI O‘QITISHDA TARIXIY RASMLAR HAMDA KO‘RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH

Xazratqulov Xamza Olimqulovich

Boyovut matematika faniga ixtisoslashtirilgan
maktab – internati I toifali tarix fani o‘qituvchisi
telefon: +998 99 470 02 99

Annotatsiya. Tarix darslarida o‘quvchilarni savodxonligini yanada oshirish, egallagan bilimlarni mustahkamlash va fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish. Rasmlar va xaritalar yordamida o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish.

Kalit so‘zlar: “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun, “Kadrlar tayorlash Milliy Dasturi”, yangi pedagogik texnologiyalar, xarita va rasmlar, “Tarixiy yodgorliklar”, yozuvsiz xarita, Jadidchilik harakati.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni va “Kadrlar tayorlash Milliy Dasturida” ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga alohida e’tibor berilgan. O‘quvchiga ma’lum materialni o‘rgatishgina emas, balki unga qanday o‘qishni o‘rgatish o‘qituvchi faoliyatidagi katta vazifadir.

O‘quv jaroyonida ko‘rgazmali qurollar xarita va rasmlardan foydalanish ta’lim samarasini yanada oshiradi.

O‘qituvchi iloji boricha har bir darsni ko‘rgazmali tarzda o‘tkazishga harakat qilishi lozim. O‘quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun hamda dars materiallarini yaxshi esda saqlab qolishlari uchun darslarda “Tarixiy yodgorliklar” “rasm” lar hamda mavzuga oid xarita va yozuvsiz xaritalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanish usullari.

O‘quvchilarga uyga vazifa berayotgan paytda mavzuga oid ko‘rgazma, xarita yoki rasmlar haqida ma’lumot to‘plab kelish topshiriladi. Tarixiy yodgorliklarni rasmi ko‘rsatilib shular haqida qo‘shimcha manbaalardan foydalangan holda darsga tayyorgarlik ko‘rish topshiriladi.

O‘quvchilarga bu vazifani alohida- alohida topshiriq sifatida berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki hammaga bir xilda vazifa topshirilsa uni hamma bajara olmasligi ham mumkin.

O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib kelganlaridan keyin sinfni guruhlarga ajratib “Har kim har kimga o‘rgatadi” usulidan foydalangan holda dars o‘tish mumkin.

Masalan:

Bu uslubning maqsadi :


- o‘quvchilarga zarur bolgan axborotni berish va o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish, hamda axborot olishdan iboratdir.

1. O‘quvchilarga uslubiyat qoidalari tushuntiriladi.: O‘quvchilar o‘zlari to‘plab kelgan axborotlarni ma’lum vaqt davomida boshqalarga o‘rgatadi.

2. Aynan o‘xshash ma’lumotlar bo‘lmasligi kerak.

3. Barcha ma’lumotlar bilan tanishib bo‘lgach bir joyga to‘planadi.

4. Shundan keyin barcha o‘quvchilar o‘z olgan bilimlarini boshqa o‘quvchilarga so‘zlab berishi yoki boshqa o‘quvchilar fikrini tinglamog‘i lozim. Ma’lumotlarni tinglash uchun ma’lum vaqt ajratilishi kerak bo‘ladi. Dars natijalarini mana bunday tarzda vatman qog‘ozga yozib boorish mumkin. Masalan:



Masalan : “Jadidchilik harakati” mavzusini olaylik. Darslarda qoʻshimcha manbalarda jadidchilik namoyondalarining juda koʻp rasmlari bor. Ammo biz darsda bu materialni hammasini qamrab olish nihoyat qiyin, shuning uchun oʻquvchilarga ham topshiriqlar aniq ixcham dars mavzusidan chiqmaydigan darajada berilmogʻi lozim.

Oʻquvchilarni guruhlarga boʻlib har bir guruhga 3 ta yoki 4 tadan rasm koʻrsatiladi hamda maʼlumot berish talab qilinadi.

1- guruh aʼzolari axborotni, 2- guruhga 3- guruh 4- guruhga oʻrgatishdi. keyingi topshiriqda esa aksincha 4 – guruh 3- guruhga 2- guruh 1- guruhga oʻrgatsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Masalan: Darslarda tarixiy (obidalar) yodgorliklar toʻgʻrisida toʻplangan maʼlumotlarni oʻquvchilarga berib borishda darslikdan tashqari, maʼlum bir davrga tegishli materiallardan ham foydalanish mumkin. Oʻquvchilarga topshiriq berilib tarixiy yodgorlik haqida maʼlumot toʻplab kelinadi yoki oʻqituvchi shu yodgorliklar haqida maʼlumot beradi.

Darsda oʻquvchilar xotirasini mustaxkamlash, ularni darsga jalb qilish uchun materialni test shaklida yoki savol javob hamda boshqotirmalar tarzida ham berib borish mumkin.

Tarixiy yodgorliklar yoki tarixiy rasmlardan darslarda foydalanish oʻquvchilarni mustaqil bilim olishi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilmogʻi lozim dedik buning uchun darslarda “Nuqtai nazaring boʻlsin” uslubidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Masalan:

Uslub maqsadi:

- oʻquvchilar muayyan muammoga oʻz nuqtai nazarini asosli dalillashni oʻrganadilar.
- oʻquvchi oʻz fikrini oʻzgartirishi mumkin.
- Bahs- muzokara yuzaga kelishi mumkin.

Masalan: bu uslubni jahon tarixi darslarida “Fransiyada Napoleon Bonopart hokimiyatining tashkil topishi va yemirilishi” mavzusida yoki “Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari” mavzusilarida qoʻllash mumkin boʻladi.

Mashqni oʻtkazish uslubi.

1. Sinf oʻquvchilari soniga qarab sinfning ochiq joylariga tablichkalar oʻrnatiladi.
2. sinf oʻlchamiga qarab oʻquvchilarning bir qismi ishtirok etishlari mumkin. Qolgan oʻquvchilar oʻz joylarida qoladi va ularga ham topshiriqlar beriladi.

Dars boshlanishidan avval oʻqituvchi oʻquvchilarga yoʻl–yoʻruq berib oʻtadi.

1. Maʼlumot bergach oʻquvchilar oʻz fikriga muvofiq tablichkalar yonidan joy egallaydilar.
2. Oʻz fikrini bayon etish uchun tayorgarlik koʻradilar.
3. Oʻz fikrlarini oʻzgartirishlari ham mumkin, albatta asos boʻlsa.
4. Sinfdoshlar fikriga qarshi oʻz fikrlarini aytishga tayyor turish lozim.
5. Oʻqituvchi oʻyinda ishtirok etmayotgan oʻquvchilargas ham alohida topshiriq beradi;

Masalan :

- Eng ahamiyatli fikrni yozib borish.
- Oʻz oʻrnini oʻzgartirmagan oʻquvchini oʻz fikrini oʻzgartirgan oʻquvchilarni kuzatib borish.



- Eng asosli javoblarni yozib boorish.

6-7 sinflardagi tarix darslarida “Tarixiy rasmlar”, “tarixiy yodgorliklar” (darsliklarda berilganlari) hamda xaritalarga qarab o‘quvchilar hikoyalar yozishlari yoki o‘z mustaqil fikrlarini bayon etishlari mumkin, bu uslub ham o‘quvchilar dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 7-sinf “O‘zbekiston tarixi” darslik kitob A. Muhammadjonov
2. 8-9 sinflar O‘zbekiston va Jahon tarixi darslik kitoblari Toshkent – 2017.
3. Internet GOOGLE ma’lumotlari



КЎЛТЎСИНДАН ТОПИЛГАН ШАХМАТ ДОНАСИНИ

Ўзбекистон маданияти тарихи
давлат музейи тарих бўлим мудир
Уктамвич Санжар Абдурахимов
Телефон: 998932323237

Аннотация: Ушбу мақолада Кўлтўсиндан топилган шахмат донаси фил суягидан ясалган бўлиб, фил ва унинг устида ўтирган одам тасвирланган шахмат Ўрта Осиёда қадимдан пайдо бўлиб, ривожланиб Ўрта Осиёнинг бир нечта ёдгорликларидан шахмат доналари топилганлиги, бу ўйин бизнинг юртимизда ҳам қадимий илдизларга эга бўлганлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: Шахмат донасини, фил суяги, асилзода, Кўлтўсин шахмати.

Ҳозирда Археология институти собиқ директори Амридин Бердимуродов 1980 йилларнинг биринчи ярмида Кўлтўсинда олиб борилган археологик тадқиқотларда иштирок этган. Ўша даврдан бошлаб у кишининг Кўлтўсиндаги қишлоқларда яшовчи кишилар билан дўстлик алоқалари давом этмоқда. Кўлтўсинлик кадрдонлари Амридин акани ҳамиша ўзларининг тўй-маракаларига таклиф этишади. 2011 йилда улар Кўлтўсин қишлоғига тўйга борган Амридин акага жуда ноёб, мўжазгина бир топилмани – фил суягидан ясалган қадимий шахмат донасини совға қилишди.

Шахмат донаси Доринсой қишлоғининг қарама-қарши томонида, Тўсинсойнинг чап соҳилида жойлашган Қўрғонтепа номи билан юритиладиган тепалик устидан тасодифан топилган экан (Бердимуродов, Богомолов, 2012, с.123-129). Топилмада шахматдаги доналаридан бири – фил ва унинг устида ўтирган одам тасвирланган бўлиб, баландлиги 4,5 см, филнинг узунлиги эса 4 см, баландлиги 2,9 см, эни 1,7 см. Фил ўрнатилган тагликнинг узунлиги 4,2 см, эни – 2,1 см ва баландлиги 0,5 см (.....расм). Донада оғир ва вазмин фил жуда маҳорат билан тасвирланган. Филнинг қулоқлари шартли, кўзлари ромбсимон, маркази узунчоқ шарсимон ҳолатда берилган, тишларидан бири синиб тушган. Фил хартуми бир оз нотабий берилган – пастга тушган хартум бурчак ҳосил қилган ҳолда қайрилган ва фигура мана шу хартумга ҳам таянган. Филнинг думи ҳам бўрттирилган ҳолатда тасвирланган. Умуман олганда, бу шахмат донасини ясаган юксак истеъдодли уста ҳар бир дақиқада ҳужумга ташланиши мумкин бўлган ҳинд филини жанговар ҳолатини ҳамда шахматдаги кураш руҳини ҳам бера олган.

Фил устида тахтиравон, унда аслзода қоматини тик тутиб, виқор билан ўтирибди. Унинг ўтириш ҳолатидан бу одамнинг аслзода эканлигига урғу берилган. У ўнг қўлида узунчоқ буюм – қиличга ўхшаган буюмни тутиб турибди, иккинчи қўли билан эса тахтиравонни ушлаган. Кийимлари кўзга ташланмайди. Юз кўриниши ва боши жуда ҳам шартли берилган. Бурни ҳам зўрға кўзга ташланади.

Филнинг боши устида фил ҳайдовчи – карнак ўрнатилган, лекин бу фигура синиб тушган ва фил боши устидаги бўртиқ жой филбоннинг қолдиқлари эканлиги шубҳасиз. Чунки фил, унинг устида ўтирган аслзода ва филнинг бошидан жой олган карнак–филбон тасвирланган буюмлар Ўрта Осиёнинг кўпгина ёдгорликларидан топилган. Бу ноёб топилма мутахассислар томонидан VII-VIII асрлар билан даврланган. Ўрта Осиёнинг бир нечта ёдгорликларидан шахмат доналари топилганлиги, бу ўйин бизнинг юртимизда ҳам қадимий илдизларга эга бўлганлигини кўрсатади.

Суғда шахматнинг қадимдаёқ пайдо бўлганлигини ушбу шахмат доналари намуналари ҳам исботлайдилар. Суғдадаги дастлабки шахмат доналари унинг марказий шаҳри Мараканда – Самарқанднинг қадимий ўрни Афросиёбдан XIX асрнинг иккинчи ярмида топилган бўлиб, унда пиёда ва от устидаги чавандоз тасвирланган. Бу доналар ҳам фил суягидан ясалган. 1977 йилда айнан мана шу ёдгорликдан фил суягидан ясалган еттита шахмат донаси топилган ва улар милонинг VIII асри билан даврланган. Улардан иккитаси пиёданнинг шакли бўлиб, бирининг ўнг қўлида қилич ва чап қўлида айлана шаклидаги қалқон, бошқа пиёда фигуранинг бошида конуссимон дубулға, ўнг қўлида калта скиф ханжари, чап қўлида айлана шаклидаги қалқон, белида қайчи, камон ўқлари учун садок, найза ғилофи. Шахмат доналари орасида фил фигураси ҳам бўлиб, у ўз ҳақиқий тирик



филга жуда ўхшайди.

Ўзбекистон ҳудудида олиб борилган археологик тадқиқотлар шахматнинг ўлкамизга кириб келиши тарихини ҳам бирмунча ойдинлаштиради. Сурхон воҳасидаги Далварзин-тепадан милоннинг II асрга оид, фил ва буқа тасвирланган фил суягидан ясалган иккита мўъжаз ҳайкалча топилган. Мутахассислар бу топилмалар шахмат доналари эканлигини ва шахмат бизнинг юртимизга Кушон подшолиги даврида Ҳиндистондан, буддавийлик дини билан биргаликда чатуранга сифатида кириб келганлигини таъкидлайдилар. Чатуранга милоннинг VI асрларида Эронга ва бу давлат орқали Арабистонга ўтган. Араб халифалиги даврида, айниқса IX-XII асрларда Мовароуннаҳрда рўй берган буюк Ренессанс, даврида барча фанларнинг юксак суратлар билан ривожланиши жараёнида, чатуранга-шатранжнинг ўйин усуллари такомиллашганлиги, унинг мукамал назарияси ишлаб чиқилганлиги шубҳасиздир.

Инсоният тафаккурининг буюк кашфиётларидан бири албатта, бу шахмат, яъни Шарқда ўрта асрларда шатранж номи билан машҳур бўлган ўйиндир. Шахмат – бу нима, ўйинми, спортми, санъатми, бу ҳақда жуда кўплаб таърифлар мавжуд. Менинг фикримча шахмат – бу минг йиллар давомида сайқалланиб юксак санъат даражасига кўтарилган тафаккур ўйинидир. Минг йиллар давомида миллионлаб одамларни ўзига оҳанрабодек тортиб келган бу ўйинни ҳар қанча таърифласа арзийди. Асрлар давомида бу ўйин ривожланиб, ўзгариб борганлиги тарихдан маълум. Манбаларда айтилишича, буюк бобокалонимиз Абу Райҳон Беруний ўз даврининг тенгсиз шатранж устаси бўлган экан. Бу зотнинг буюк тафаккурга эга бўлишида, фанларнинг ўнлаб соҳаларида баракали ижод қилиб, юзлаб ўлмас асарлар яратишида шахматнинг ҳам ўрни бекиёс бўлган, десак янглишмаймиз, албатта.

Султон Махмуд Ғазнавийнинг Ҳиндистонга қилган кўплаб юришларида Беруний ҳам иштирок этган, лекин улуғ бобомизнинг ҳарбий қўшин таркибида Ҳиндистонга сафарлари илм мақсадида бўлган. Беруний Ҳиндистонга сафар қилиши арафасида ва сафар чоғида ҳиндларнинг санскрит тилини мукамал ўрганган, бу тилда ёзилган юзлаб китобларни мутолаа қилган. У Ҳиндистоннинг тарихи, ўша даврдаги табиати, фанлари, ҳиндларнинг қадимий маданияти билан қизиққан ва ўзининг беназир “Ҳиндистон” асарини ёзган.

Ҳиндистонлик олимларнинг эътироф этишларича, қадимдан то ҳозирги кунларгача ҳам, Ҳиндистон тарихи бўйича Берунийнинг бу асари каби мукамал асар бошқа яратилмаган. Буюк бобомиз Ҳиндистонга бормасидан аввал ҳам шахмат билан яқиндан таниш бўлганлиги, шахмат борасида ҳам маҳсул асарлар ёзганлигини тахмин қилса бўлади. Чунки Беруний ўзи доимий равишда шуғулланган математика, геодезия, география, астрономия каби аниқ фан соҳаларидаги асарларидан ташқари фалсафа, тарих, мусиқа, шеърият ва бошқа яна кўплаб соҳаларга бағишлаб юзлаб асарлар ёзганлиги тарихдан маълум. Шунинг учун ақл билан ўйналадиган бу ўйинга Беруний каби буюк тафаккур эгасининг алоҳида муносабат билдирмаслиги мумкин эмас, албатта ва бунга қуйидаги воқеа ҳам исбот бўла олади.

Беруний “Ҳиндистон” асарида шахматнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ қизиқ бир ривоятни келтиради. Бир брахман ўзи кашф қилган шахмат ўйинини рожага кўрсатади. Рожа эса бундай ақлли брахманни тақдирлашга қарор қилади ва брахмандан нима совға олишини истагини сўрайди. Брахман эса унинг олдида шахмат тахтасини ёзиб, – биринчи хонага битта буғдой донаси, иккинчи хонага иккита буғдой донаси, учинчи хонага тўртта, тўртинчи хонага саккизта, бешинчи хонага ўн олтита, олтинчи хонага ўттиз иккита, еттинчи, саккизинчи... ва шу тариқа олтмиш тўртта хонага ҳисоблаб буғдой берсанг етарли, – деди. Рожага бу арзимас совға қулгили бўлиб туюлади ва брахманни ахлоқ деб ўйлаб, омборчини чақириб брахманга айтган буғдойини бериб, жўнатиб юборишга топшириқ беради. Бирмунча вақтдан кейин омборчи қайтиб келиб рожага брахманга бериладиган бунча буғдой нафақат рожанинг омборида, балки бутун Ҳиндистонда, ҳатто ер юзида ҳам йўқлигини маълум қилади. Бунчалик сонга эга бўлган буғдой уюмини сиғдириш учун ҳажми 90 км³ бўлган тасаввурга сиғдириб бўлмайдиган даражада улкан омбор керак бўлар экан.

Берунийнинг мана шу ривояти ҳам шахматнинг Ҳиндистонда кашф этилганлигига бир ишорадир.

Соҳибқирон бобомиз Амир Темурнинг буюк саркардалиқ қобилятининг ривожиди ҳам шубҳасиз шатранжнинг хизмати катта бўлган. Бобомиз фақат уруш майдонларида эмас,



балки шахмат тахтасида ҳам ҳамиша ғалаба қилган. Айтишларича, Амир Темур бобомизнинг ўзи курашни акс эттириб ўйналадиган, ўзига хос такомиллашган шахмат каби ўйин ҳам кашф қилган эканлар, лекин унинг бу кашфиёти бизнинг кунларгача етиб келмаган.

Биз тадқиқ этаётган Катта Суғдда шахмат қадимдаёқ пайдо бўлган албатта. Суғдда шахмат, албатта, Ҳиндистондан, шубҳасиз бу мамлакатга савдо юмушлари билан борган суғдий савдогарлар томонидан олиб келинган бўлса керак, чунки савдогарлар ўзлари борган ҳар қандай мамлакатда баъзан ойлаб қолиб кетишган ва ўша мамлакатларнинг Суғдда йўқ янгиликларини ўзлаштирганлар. Шу тариқа суғдий боболармиз Ҳиндистондан уларнинг “Чатуранга” деб аталган қадимий шахмат ўйинини олиб келишган.

Тўсинсой водийсидан топилган шахмат донасининг аҳамияти – инсоният тафаккурининг буюк кшфиётларидан бири бўлган шатранж ўйини нафақат марказий шаҳарларда, балки улардан анча олис масофаларда жойлашган қишлоқларда ҳам ўйналганлигидан, бу қишлоқларда яшаган қадим боболаримиз ҳам бу ақл ўйини тахтасида кечаётган курашларнинг, қутилмаган юришлар ва ғалабаларнинг чексиз лаззатларидан баҳраманд бўлганлигини кўрсатади

Фойдаланилган адабиётлар

1. Беленкий Б.М. Бенотович И.Б. Болшаков О.Г. Средневеков город Средней Азии. Л.1973. ст 43.
2. Беленкий Б.М. Бенотович И.Б. Болшаков О.Г. Средневеков город Средней Азии. Л.1973. ст 54.
3. Сураб –суруштурув далиллари.Махаллий.



САМАРҚАНД ВАЙРОНАЛАР ЎРНИДА ҚАЙТА РОСТЛАНАВЕРГАН

Усанов Нурали Маманазарович,
Ўзбекистон маданияти тарихи
Давлат музейи тарих ва этнография
бўлими катта илмий ходими, Самарқанд,
Ўзбекистон, nurali_196912@rambler.ru

Аннотация: Бу мақола Самарқанд давлат музей-қўриқхона кутубхонаси фондида сақланаётган XIX аср француз сайёҳлари А. Дюрийо ва Р. Фўвелларнинг саёҳатлари натижасида яратилган китоб асосида ёзилди. Ушбу китобда турли халқлар ва уларнинг яшаш шароитлари, Самарқанд ва Бухоро шаҳарларидаги тарихий обидаларнинг аянчли аҳволи ҳақидаги таассуротлар ҳикоя қилинади. Чор Россияси босқини сабаб Самарқандга кириб келган рус темирйўли бўйлаб саёҳат қилган бу франциялик сайёҳлар Амир Темурни, темурийларни, Самарқандни, унинг аҳолисини, тарихий обидаларини қайтадан кашф қилишди. Франциялик сайёҳлар ушбу китобида бу юрт аҳолиси, уларнинг кундалик ҳаёти, яшаш шароити, урф-одати, тилида ишлатиладиган сўз ва атамалар, уларнинг маънолари, руслар босқини ва генерал губернаторлик тузуми ҳақида муҳим маълумотларни кенг ёритиб берганлар.

Аннотация: Эта статья написана на основе книги, которая хранится в фонде Самаркандского государственного музея-заповедника, созданной в результате путешествий французских туристов XIX века А. Дюрийо и Р. Фувеля. В этой книге рассказываются история разных народов и условий их жизни, впечатления о плачевном состоянии исторических памятников в городах Самарканда и Бухары. Эти французские туристы, путешествовавшие по русской железной дороге, которая вошла в Самарканд из-за вторжения в царскую Россию, заново открыли Эмир Тимур, Тимуриды, Самарканд, его население и исторические памятники. В этой книге французские путешественники предоставили важную информацию о жителях этой страны, их повседневной жизни, обычаях, словах и терминах, используемых в языке, их значениях, русском вторжении и режиме генерал-губернатора.

Annotation: This article written according to a book kept in the fund of the Samarkand State Museum-Reserve's Library by 19th century French tourists A. Durrieux and R. Fauvelle, created as a result of travels. This book tells the story of different peoples and their living conditions, the deplorable state of historical monuments in the cities of Samarkand and Bukhara. These French tourists, who traveled on the Russian railway, which entered Samarkand due to the invasion of Tsarist Russia, rediscovered Emir Timur, the Timurids, Samarkand, its population and historical monuments. In this work travelers provided important information about the people of this country, their daily life, living conditions, customs, words and terms used in the language, their meanings the Russian invasion and the general governor's regime.

Калит сўзлар: Самарқанд, Афросиёб, Авесто, сулолалар, босқинлар, ибн Батута, Зарафшон-Политимет, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Захириддин Мухаммад Бобур.

Ключевые слова: Самарканд, Афрасиаб, Авеста, династии, вторжения, ибн Батута, Зарафшан-Политимет, Эмир Тимур, Мирза Улугбек, Захириддин Мухаммед Бабур.

Keywords: Samarkand, Afrosiyab, Avesto, dynasties, invasions, Ibn Battuta, Zarafshan-Politimet, Emir Timur, Mirza Ulugbek, Zahiriddin Muhammad Babur.



1901 йил Парижда нашр этилган асарда муаллифларнинг Москвадан Самарқандгача бўлган масофани рус темирйўли бўйлаб босиб ўтгани, турли халқлар ва уларнинг яшаш шароитлари, Самарқанд ва Бухоро шаҳарларидаги тарихий обидаларнинг аянчли аҳволи ҳақидаги таассуротлари ҳикоя қилинади. Китобда айрим баҳсталаб маълумотлар ҳам учрайдики, бу китоб қимматига ўз таъсирини кўрсатмайди. Кенг китобхонлар оммасини мана шундай адабиётлар билан таништириш мақсадида асардаги айрим ҳикоялар намуналарини эътиборингизга ҳавола этишга қарор қилдим.

Самарқанд шаҳрининг шимолий-ғарбида Афросиёб деб аталадиган кимсасиз тепалик мавжуд. Бу тепалик қадимий шаҳарнинг бешиги ҳисобланади. Зеро унинг замини асрлар давомида бири иккинчисидан кейин мавжуд бўлган маданий қатламлардан иборат. Қадим Самарқандда Рим сув қувурларидан қолишмайдиган ажойиб ерости «кўрғошин қувурлари» қурилган. Шаҳар оташпарастларнинг муқаддас китоби «Авесто»нинг бир қисми бўлган «Зинд-авесто»да тилга олинган Туроннинг афсонавий ҳукмдори Афросиёб номи билан аталган. Милоддан аввалги IV асрда Самарқанд Искандар Зулқарнайн бошчилигидаги юнон-македон қўшинлари томонидан забт этилади. Искандар ўлимидан сўнг Мароқанд саркарда Салавка ва унинг авлодлари қўлига ўтади. Эрамиздан аввалги 256 йилда уларнинг ноиб Диодот исён кўтариб, Юнон-Бақтрия давлатига асос солади. Орадан юз йил ўтиб шаҳар Парфия шоҳи Митридат I қўлига ўтади.

Буюк Ипак йўли мазкур шаҳар орқали ўтган ва унинг ривожига муҳим рол ўйнаган. Эрамизнинг I асрида Самарқанд Суғдиёна ва Бақтрия тарихида Буюк Кушон давлати сифатида ном қолдирган йирик давлат таркибига кирган. Милодий III-IV асрларга келиб, бу салтанат инқирозга юз тутди ва жангари кўчманчи қабила эфталитлар таъқибига дош беролмайди. Ўз навбатида VI асрга келиб эфталитлар туркий қабилалар томонидан сиқиб чиқарилган. Ҳукмдорлар ва сулолалар алмашинувига карамай Самарқанд нафақат Марказий Осиё, балки бутун Шарқ иқтисодий, сиёсий, маданий ҳаётида муҳим ўрин тутишда давом этган.

Ўз даврида гуллаб яшнаган бу шаҳарни VIII асрда араблар истило қилган бўлса, 1220 йилги мўғул тўфони бутунлай вайрон қилди. Кетма-кет ҳужумлар натижасида қалъа деворлари қулади, шаҳарни сув билан таъминлаб турган кўрғошин сув қувури бузилди, жомеъ масжиднинг кули кўкка совурилди. Тинч аҳоли эса ғаним камонбозларининг тирик ўлжаларига айланди. Сувсиз қолган шаҳарда ҳаёт сўнди. Лекин XIV аср бошида шаҳри дарун ва шаҳри берунда ҳаёт аста-секин изга тушди.

XIV асрнинг биринчи чорагида марокашлик машҳур сайёх ибн Батута Самарқандга ташриф буюради. 1325 йилдан 1350 йилгача у Мисрни ва бутун Осиёни айланиб чиқади.



Унинг хотираларида Самарқанд оғир талафотлар оқибатини тугатаётган шаҳар сифатида гавдаланади. Батгутанинг таъкидлашича, «Самарқанд дунёнинг энг йирик ва энг гўзал шаҳарларидан бири ҳисобланади. Бироқ шаҳар аҳолисининг юксак ақлу-заковатидан дарак бермиш саройлар ва иморатлар ҳамда кўплаб маҳаллалар вайрон қилинган. Қалъа деворлари ва дарвозалари бузиб ташланган бўлса-да, унинг боғларини суғориш учун кўплаб сув иншоотлари бунёд этилган».

Дарҳақиқат, француз сайёҳлари А.Дюрийо ва Р.Фўвеллар XIX асрнинг охирида Самарқандга поездда келаётганда Зарафшон дарёсини кўради. Зарафшон дарёси Самарқанд минтақаси учун муҳим оби-ҳаёт манбаи ҳисобланган. Зарафшон форсийча сўз бўлиб, «тилла ташувчи» деган маънони беради. Страбон унга «Политимет» деб ном берган.

«Яхши сақланган Самарқанд» атамаси бежизга қўлланилмаган, чунки шаҳар Искандар Зулқарнайндан то Чингизхонгача бўлган ҳукмдорлар ва уларнинг қўшинлари томонидан вайрон этилса-да, ҳар сафар вайроналар ўрнида қайта пайдо бўлавераркан.

Чингизхон оламдан ўтгач, Самарқанд унинг ўғли Чигатой ва ундан кейинги фарзандлар мулкига айланади. Бу даврдаги шаҳар тарихи ҳақида деярли маълумотлар йўқ.

Амир Темур Самарқандга ибн Батута сафаридан қирқ беш йил кейин кириб келди. Соҳибқирон минглаб ваҳший амалдорлар, азму шижоатсиз хонлар ўртасида пароканда қилинган Мовароуннахр тахтига даъвогар сифатида майдонга чиққанида эндигина ўттиз тўрт баҳорни қаршилаган эди. У на шахзода ва на қудратли хоқоннинг меросхўри, балки оддий бир уруғ бошлиғининг ўғли бўлганлиги учун ҳам бу ўлка тахтига ғанимларни енгибгина ўтирди. Унинг дастлабки қилган иши юртнинг барча бошлиқларини Самарқанд яқинига тўплаб (баъзи манбаларда Балх шаҳрида, аслида ҳам шундай), қурултой ўтказиш бўлди. Бундай катта йиғинлар мўғул ҳукмдорлари томонидан уюштирилар ва уларда бўлажак жангларга тайёргарлик масалалари муҳокама қилинарди. Деярли барча амирлар таклифни қабул қилишди, улар муносиб тарзда рағбатлантирилдилар. Бироқ қурултойга келмаганлар исёнкор деб ном олди ва кейинчалик шунга лойиқ жазоландилар. У мўғуллар ҳукмронлиги даврини кўмсаганлар учун қўшинда Чингизхон томонидан тузилган қоидалар - «Ясок»ни сақлаб қолди. Амир Темур Чингизхон авлодидан бўлмиш шахзода Суюрғатмишхонни тахтга ўтказиб, ўзини унинг лашкарбошиси деб эълон қилди. Аслида эса хон барча масалаларда унга итоат қиларди. 1370 йилдан 1405 йилгача бўлган даврда Соҳибқирон Амир Темур Эрон, Ироқ ва Туркистонни забт этди, Сурия, Ҳиндистон ва Урусияни бўйсундирди, Туркияни мағлубиятга учратди. Дамашк, Бағдод ва Дехлида зафар кучди, замонасининг энг моҳир жангчилари бўлмиш мўғуллар, мамлуклар ва яничарларни маҳв қилди. Европада Тамерлан (форсча Темурланг - Оқсоқ Темур) номи билан маълум бўлган Амир Темур ўттиз беш йилга яқин вақт ичида Осиёни тиз чўктирди.

Муалифларнинг фикрича, тарихан қисқа умр курган буюк салтанат барпо этди. Аслида, Амир Темур беш аср мобайнида аввал Мовароуннахрда, сўнг Хуросонда, ундан кейин Ҳиндистонда мавжуд бўлган салтанат асосини барпо этган эди. У салтанатнинг биринчи пойтахти Самарқандни тенгсиз меъморий обидалар билан безатди. Ҳарбий юришларида нафақат беҳисоб бойликларни қўлга киритди, шунингдек, текин ишчи кучи ҳисобланган кўплаб асирларни, асосийси, тажрибали меъморлар ва қурилиш ишининг моҳир усталарини Мовароуннахрга олиб келишга эришди. Бу даврга келиб Марказий Осиё меъморчилиги Эрон, Озарбайжон, Хуросон, Хоразм меъморчилиги билан бирлашган ҳолда ўз тараққиётининг юқори чўққисига кўтарилди ва у ўзининг ғоявий улуғворлиги, уни руёбга чиқаришдаги мукамаллиги билан ажралиб турди.

1371-1372 йилларда Амир Темур фармони билан Самарқанд ҳисорининг ғарбий қисмида, табиий тепаликда қалъа барпо этилган бўлиб, қалъа ичида маъмурий бинолар, қуролсозлик устахоналари, аслаҳахона, хазина, қамоқхона (зиндон) жойлашган эди. Бинолар ичида Кўксарой - Амир Темур саройи ўзининг улуғворлиги билан алоҳида ажралиб турарди. У тўрт қаватли бўлиб, унинг ташқи беағида кўк-зангор кошнинг кенг қўлланилганлиги учун Кўксарой деб аталган. «Талари Темур» деб аталувчи Амир Темурнинг қабулхонаси ҳам шу ерда жойлашган эди. Бу залда Умонлилар салтанати пойтахти Бурсадан Амир Темур фармони билан олиб келинган Кўктош ҳам бор эди. Бу Кўктош кейинчалик Бухоро амирлигида амирларнинг тахтга ўтириш маросимларида ҳам фойдаланилган. Қалъа ичидаги иккинчи сарой мевазор боғда жойлашганлиги учун Бўстонсарой деб аталган. Иккала сарой ҳам, шунингдек, қалъа ичидаги бошқа барча иморатлар ҳам бизни давримизгача



сақланмаган. Француз сайёҳлари А.Дюрийо ва Р.Фўвеллар Самарқандга ташриф буюришганида қалъа ва бошқа иморатлар аянчли ҳолда бўлса-да, ҳали мавжуд эди.

Шаҳр (Шахрисабз)даги Оксарой Амир Темурнинг девони жойлашган сарой ҳақида тасаввур беради. Оксарой номи унинг оқ рангда бўлганлигидан бўлса эҳтимол, лекин «оқ» атамасининг кўчма-улуғвор, салобатли маънолари ҳам мавжуд. Сарой қурилиши 1380 йилда бошланиб, 1386 йилгача давом этган, лекин пардозлаш ишлари 1404 йилгача амалга оширилган. Булардан ташқари, Амир Темур фармони билан Шоҳи зинда меъморий мажмуасида бир неча мақбаралар, Бибихоним (Сароймулкхоним хон авлодидан бўлганлиги, латофати ва оқилалиги туфайли саройдаги биринчи хоним, Амир Темурнинг суюкли рафикаси эди) номи билан аталувчи масжид, суюкли набираси, тахт вориси бўлган Муҳаммад Султон учун улуғвор мақбара (вафотидан сўнг Амир Темур ҳам бу мақбарага дафн этилган), Самарқанд шаҳри атрофида ўн тўртта боғ-саройлар, Туркистон (Ясси шаҳри)да Хўжа Аҳмад Яссавийга бағишланган меъморий мажмуа (бу бино Ҳазрати Темур масжиди деб аталиб, Амир Темур фармони билан 1404 йилда форс меъмори Хўжа Хусайн томонидан қурилган) ва бошқа меъморий обидалар барпо этилди.

Амир Темурнинг қурувчилик фаолияти унинг вафотидан сўнг Мовароунаҳрда набираси, буюк фалакиётшунос олим Мирзо Улуғбек томонидан давом эттирилди. Мирзо Улуғбек ҳукмдорлиги даврида барпо этилган обидалардан Самарқанд шаҳрида Улуғбек мадрасаси, Бухоро ва Ғиждувон шаҳарларидаги мадрасалар, Шахрисабздаги Гумбази Сайидон мақбараси ва Кўк Гумбаз масжидлари сақланиб қолган.

Француз адабиётида Бабер исми билан ном қозонган (аслида «Бобур» - Йўлбарс номи билан тарихга кирган) Захириддин Муҳаммад Бобур - Амир Темурнинг ўғли Мироншоҳнинг чевараси бўлмиш Андижон ҳукмдори Умаршайхнинг ўрнига тахтга ўтирганда атиги ўн икки ёшга тўлган эди. Самарқанднинг сўнгги темурий ҳукмдори бўлмиш амакиси оламдан ўтиши оқибатида у ҳам тахт даъвогари бўлиб чиқди. У Самарқандни қўлга киритганида бағоят хурсанд эди. Аммо энди Самарқанд «Шарқ дурдонаси» ҳам, «фаровон» ва «осуда маскан» ҳам эмас, аксинча қисман вайронага айланган, очарчилик ҳукм сураётган ва бор йўғидан ажралган шаҳар эди, холос. Шу тариқа Бобур Самарқандни яна икки бор эгаллаб, яна ташлаб чиқиб кетишга мажбур бўлади. Сўнгги бор Шайбонийхон таъқибидан қочиб, аввал Афғонистонга, сўнг Ҳиндистонга юриш қилади. Бобоси Амир Темур каби Бобур ҳам Ҳиндистонда буюк салтанат - Бобурийлар (Европа адабиётида - Буюк мўғуллар) салтанатини барпо этди. Бобур туфайли Ҳиндистонда уч юз йилдан ортиқ вақт ҳукмронлик қилган сулола томирларида улуғ Амир Темур қони оқарди. Буюк Бобурийлардан кўпчилиги машҳур ҳукмдорлар сифатида тарихга кирди.

Хуллас, Чор Россияси босқини сабаб Самарқандга кириб келган рус темирйўли бўйлаб саёҳат қилган европалик адиблар, журналистлар ва сайёҳлар Амир Темурни, темурийларни, Самарқандни, унинг аҳолисини, тарихий обидаларини қайтадан кашф қилишди. Улар сайёҳатлари давомида фотоальбомлар, мақолалар ва китоблар яратди, асарларида бу юрт фуқаролари, уларнинг кундалик ҳаёти, яшаш шароити, урф-одати, тилида ишлатиладиган сўз ва атамалар, уларнинг маънолари, руслар босқини ва генерал губернаторлик тузуми ҳақида муҳим маълумотларни кенг ёритиб бердилар.

Фойдаланилган адабиёт:

1. A.Durrieux et R.Fauvelle. Samarkand la bien gardée. Ouvrage accompagné de 23 gravures. Paris, Librairie Plon, Plon-Nourrit et G^{ie} Imprimeurs-Editeurs 8, Rue Garancière – 6^e. 1901. Tous droits réservés.



ҲУЖЖАТЛАРГА ЯШИРИНГАН МОЗИЙ СИРЛАРИ

Ўзбекистон маданияти тарихи
давлат музейи доимий ва кўчма
кўргазма бўлими катта илмий ходими
Эсиргапов Бунёд Ибрагимович
телефон номер: 97 926 06 66
azizbek_1402@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада архив ҳужжатларида аграр муносабатлар, солиқ тизими ва турли ҳил мажбуриятлар масаласи ҳам ёритиб берилган. Архив фондлари орасида сарой ҳаражатларини кўрсатувчи жуда кўп ҳужжатлар ҳам мавжуд бўлган. Бу ҳужжатлар хон бюджетининг қандай сарфланганлигини аниқ қилиб кўрсатиб беради

Калит сўзлар: Хонлар архиви. ҳаражат дафтарлари.мукофотлар.ҳаражатлар архив ҳужжатлари.солиқлар.кўнғирот уруғи.туркистон босқин.

Тарихни, жумладан, Ўзбекистон тарихини ўрганувчи тадқиқотчилар учун архив материаллари ва ҳужжатлари катта аҳамиятга эгадир. Хива хонлигининг архиви мисолида фикр юритишимиз бунинг асосидир. Чунки Хива хонининг архиви борлиги фан оламига маълум бўлмаган бир вақтда профессор П.П.Иванов Ленинграддаги Салтиков-Шчедрин номли халқ кутубхонасидан архив ҳужжатларни топиб Хива тарихига оид тадқиқотлар доирасини кенгайтиришга муваффақ бўлди. У 1936 йилдаёқ кутубхонадаги қўлёзма бўлимининг рўйхатга олинмаган фондларидан XIX асрдаги Хива хонлари архивини топади ва бу асосида иш олиб боради.

Крачковский И.Ю. ўзининг “ Архив Хивинских ханов XIX века” асарида, академик В.В.Бартолднинг Ўрта Осиёда, шунингдек, Москва ва Ленинград архивларидан кўп марта Хива хонининг архивини қидириб кўрганлиги ва бироқ бу тўғрисида бирор маълумот топа олмаганлигини айтиб ўтади. Дарҳақиқат, Хива хонлари архиви тарихнинг бу даврини элчилар ва сайёҳларнинг бир ёклама хотираларига қараб ўрганишга чек қўяди. Чунки бу архив 1873 йилда рус қўшинларининг Хивадаги уруши вақтида Петербургга олиб кетилган. Ўрганишлар даврида халқ кутубхонасидаги бу ноёб архивнинг фақат бир қисмигина сақланиб қолганлиги аниқланди. 1948 йилда Хива архивининг ҳеч қимга маълум бўлмаган кўпгина ноёб дафтарлари топилди. Булар халқ кутубхонасида П.П. Иванов томонидан топилган коллекцияни анча тўлдиради ва уни янада кадрлироқ қилди. Шундай қилиб умумий ҳажми ўн бир минг варақдан иборат қимматли Хива хонлари архивига эга бўлинди. Биринчи марта тўла тўқис ўрганилаётган Хива хонлари архиви Хиванинг ўтмиши ҳақида кўпгина янги ва муҳим маълумотларга эга эканлиги маълум бўлди. Бу архив хонликнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётини, давлат тузилишини, ҳарбий кучини, маданиятини ва ўша давр урф-одатларини мукамал ёритиб берадиган аҳамиятга эга бўлган қимматли манба эди. Архив Хива хонлигининг Россия билангина эмас балки, Эрон, Ҳиндистон ва бошқа қўшни мамлакатлар билан қилган алоқаларининг муҳим томонларини ўз ичига олади. Архив материалларидан маълум бўлишича Хива хонлигининг асосий бойлиги ер бўлган ва ернинг асосий қисми мулкдор заминдорлар қўлида бўлган. Ерни ижарачи деҳқонлар ижарага олиб ўзлаштирганлар. Архив ҳужжатларида аграр муносабатлар, солиқ тизими ва турли ҳил мажбуриятлар масаласи ҳам ёритиб берилган. Архив фондлари орасида сарой ҳаражатларини кўрсатувчи жуда кўп ҳужжатлар ҳам мавжуд бўлган. Бу ҳужжатлар хон бюджетининг қандай сарфланганлигини аниқ қилиб кўрсатиб беради. Чунки дафтарларга ҳар бир майда-чуйда ҳаражатлар ҳам ёзиб борилган. Худди шу ҳол бу ҳужжатларнинг илмий қимматини ошириш билан бирга уларни муҳим тарихий манбага айлантиради. Сарой ҳаражатларига доир материалларни синчиклаб ўрганиш орқали, биз сарой турмушини, хон бошлиқ амалдорларнинг фаолиятини ўрганамиз ва кенг таъсуротга эга бўламиз. Ҳаражат дафтарларига ёзилган маълумотлар товар-пул муносабатларининг ривожланиши натижа-сида жамият ҳаётида юз берган ўзгаришларни билиб олишга имкон яратади. Хива хонлиги тарихида бўлиб ўтган бирор воқеанинг юз берган вақтини аниқ айтиб бериш архив материалларининг асл нусхалари топилганига қадар мумкин бўлмаган эди. Мазкур ар-



хив ҳужжатларининг ўша даврда тартиб билан ёзиб борилиши, тўпланиши ва сақланиши ҳам Хива хонлиги маданияти, жумладан ўзбек халқининг бой ва юксак маданияти ҳамда тараққиётдан далолат берувчи ишончли омиллардан бири ҳисобланади.

Архив ҳужжатлари билан танишар эканмиз, юқоридаги ҳаражатлардан ташқари бошқа мақсадлар учун қилинган ўзига ҳос ҳаражатлар тўғрисида ҳам маълумотлар олиш имконига эга бўламиз. Масалан, Хива хонлиги даврида ўз хизмат вазифасини бажаришда ўрناق кўрсатган ҳарбий амалдорларга мукофат тариқасида пул, ер-сув, чорва ва қимматбаҳо буюмлар берилганликлари ҳам алоҳида қайд қилинган. Турли жун мато ва чопонлар билан мукофатлаш усули ҳам кенг тарқалганлиги ҳужжат маълумотларидан маълум. Айрим ҳолларда мукофат тариқасида пичоқ, бошқа ов қуроллари ва уй-рўзғор буюмлари ҳам берилганликлари қайд қилиб ўтилганлигини гувоҳи бўламиз. Шунингдек, хон сулоласига мансуб бўлган кишиларга ва кўзга кўринган амалдорларга фаҳрий ёрлик тариқасида олтин ва қимматбаҳо тошлар билан безатилган камарлар ҳам тақдим қилинар экан.

Хонлар ва катта ер эгалари ҳокимиятни ўз қўлларига олганларидан кейин ўзларининг шахсий манфаатларини қондириш учун кўплаб ҳаражатлар қилганлар. Жамият эҳтиёжлари учун эса ниҳоятда кам пул сарфлаганлар. Архивида сақланган ҳужжатларга эътибор қилар эканмиз, 1910 йилдаги қилинган ҳаражатларга эътибор қаратадиган бўлсак, ўз характерида кўра хонлик маъмуриятининг XIX асрдаги ўртача йиллик ҳаражатларидан деярли фарқ қилмайди:

- 1) Сарой ҳаражатлари – 36.557 тилло
- 2) Хон ҳазрати олийлари 945 тилло олдилар.
- 3) Хоннинг банк орқали қилган ҳаражатлари – 4729 тилло.
- 4) Хоннинг идора (концелария)си орқали қилинган ҳаражатлари – 5000 тилло.
- 5) Кўхна Урганчга қилинган ҳаражатлар – 506 тилло.
- 6) Хоннинг қўшимча шахсий ҳаражатлари – 280 тилло.
- 7) Хон посбонларига шахсан берилган пуллар – 415 тилло.
- 8) Хон учун Петербургдан коляска олиб келган русларни кутиб олиш учун қилинган ҳаражатлар – 889 тилло.
- 9) Амалдорларга берилган пуллар – 16900 тилло.
- Айрим амалдорларга берилган пуллар – 90 тилло.
- 10) Мехтар ва қушбегининг идора ҳаражатлари – 280 тилло.
- 11) Сув тошқини муносабати билан қилинган ҳаражатлар – 1284 тилло.

Юқорида зикр этилган фактлар хоннинг қандай ҳукмронлик қилганидан далолат беради.

Архив ҳужжатларида Хива хонлигидаги маданий ҳаёт, мадрасалар тўғрисида ҳам маълумотлар берилади. 1872 йилда Хивада Сайид Муҳаммад Раҳимхоннинг буйруғи билан 76 ҳужрали мадраса қуриб битказилади. Мадраса ихтиёрига хон томонидан 2941 таноб вақф ер ажратиб берилди. Мадраса қуриб битказилгандан кейин унинг тантанали очиши маросими ўтказилганлиги тўғрисида маълумотлар мавжуд. Архив ҳужжатларида биз ушбу маросимни ўтказиш билан боғлиқ хон ва унинг амалдорларига берилган сонсаноксиз ҳаражатлар 7-дафтардан ўрин олган. Шунини қайд қилиш керакки, бу дафтарга ҳар бир майда-чуйда ҳаражатлар ҳам тартиб билан ёзиб борилган. Бу эса архив дафтарларининг ҳужжат сифатидаги қийматини жуда ошириб юборади. Ҳаражат дафтарларидаги ёзувлар товар-пул муносабатларининг ўсиши натижаларини қисман билиб олиш имкониятини беради. Анча илгарироқ ёзилган ҳаражат дафтарларидан биз хонликда хўжаликнинг натурал формаси устунлигини кўрамиз. Хонлик учун бажарилган турли ишлар ва қилинган хизматлар учун фақат ғалла билан ҳақ тўланган. Архив ҳужжатларидан маълум бўлишича кейинроқ давлат иқтисодиётида юз берган ўзгаришлар муносабати билан сарой хазинасида натурал ҳаражатлардан бевосита пул ҳаражатларига 1855 йилда ўтилганлигини ҳужжатларда кўрамиз. Хонлик тарихидаги бирон-бир воқеанинг қачон содир бўлиб ўтганлиги ҳужжатларининг асл нусхаси топилгандан кейин аниқланди. Архив ҳужжатлари фақат сарой ички ҳаётини тўлиқ ёритибгина қолмай балки, Хива хонлигидаги халқ оммасининг аҳволини ҳам акс эттирар эди. Шунини алоҳида қайд қилиш керакки, нима учун Хива хонлигининг расмий марказлашган архиви XIX асрдагина вужудга келганлигига архив материалларининг ўзигина жавоб беради. Архив ҳужжатларида асосан ердан олинган солиқлар тўғрисида маълумот бор. Олинадиган солиқларнинг миқдори ёзилган



дафтарлар архив материалларининг анчагина қисмини ташкил этади. Бошқа ҳужжатларда эса солиқларнинг қандай сарф этилганлиги ҳам ёзилади. Демак бу ҳужжатлар, аввало, Хива хонлигининг хўжалик манфаатлари нуқтаи назаридан ёзиб борилган. XIX аср бошларида Хива хонлигида ҳужжатларини сақлаш анча яхши йўлга қўйилганлигидан далолот беради. 1830-1832 йилларда Тошхўвли саройини қурган Оллоҳқулихон давлат архивий дафтарларини сақлашга алоҳида эътибор берган. Тошхўвлида ҳужжатлар сақланадиган маҳсус хона ва жойлар қурилган. Тарихчиларнинг берган маълумотларига қараганда саройдаги архив ҳужжатлари хазина билан бир қаторда алоҳида бинода жуда эҳтиёткорлик билан махфий ҳолда сақланган экан. Архив ҳужжатларини назорат қилиб туриш учун алоҳида кишилар ҳам ажратилган. П.П. Иванов архив дафтарларини текширган вақтида уларга тартиб рақамларини ўз ихтиёрича қўйган. Бу рақамлар Салтиков-Шчедрин номидаги халқ кутубхонасидаги архив материалларни инвентаризация қилиш вақтида қўйилган рақамларга тўғри келади. Масалан: П.П. Иванов томонидан тавсиф қилинган 2-дафтарга Хива хонлари саройида 13 рақами, 88-дафтарга 2 рақами, 70-дафтарга эса 4 рақами ёзилган. Бу рақамлар дафтар муқовасига катта қилиб ёзилган. Аммо ҳамма дафтарларга ҳам тартиб рақами қўйилмаган. Бу дафтарларни тартибга солганда саройдаги иш юритувчилар уларнинг ташқи кўринишига қараб рақамлаган бўлиши мумкин. Ҳаражат дафтарларининг айрим гуруҳлари ўз муқовасининг ҳажми, ранги ва формати жиҳатидан бошқа дафтарлардан ажралиб туради. Масалан: солиқ дафтарлари чарм муқовали бўлиб, уларнинг ҳажми одатда оддий ёзув қоғозининг 8/1 қисмига тўғри келади. Сарой ҳаражатлари ёзилган барча дафтарлар картон муқовали бўлиб, формати ёзув қоғозига баробардир.

Ариқ-зовурлар (каналлар)ни тозалаш, тўғонларни мустаҳкамлаш, йўллар қуриш сингари ишларни бажариш учун юборилган кишиларнинг рўйхатлари ёзилган дафтарларнинг формати ҳам худди юқоридагича бўлган. Бу дафтарлар бошқа дафтарларга нисбатан кўп саҳифали бўлиб, улар пишиқ чармдан муқова қилинган. Хонликнинг махфий ҳаражатлари ёзилган ва фақат саройнинг ўзидагина сақланадиган дафтарларнинг муқовалари оддий картондан қилинган. Шундай қилиб архив дафтарларининг ташқи кўриниши муайян мақсадга, хон саройи маъмуриятининг амалий талабига мувофиқ ишланган. Дафтар варақлари ҳеч бири саҳифаланмаган. Дафтар варақлари жуда қадим замонларда қўлланилган усул билан бир-бирига мослаштирилган. Ҳар бир варақнинг бошланишида ундан олдинги варақдаги сўз такрорланган. П.П. Иванов ишни осонлаштириш мақсадида дафтар бетларини қўшалок қилиб ҳам рақам, ҳам ҳарфлар билан саҳифалаб чиққан. Хива давлати архиви дафтарлари ўрганилганда уларнинг бетига қўйилган рақамларга эмас, балки худди қўл ёзмалардаги каби ҳар бир рақам ва ҳарфларга мурожат қилинган.

1873 йилда Хива хонлиги архивидан топилган ҳужжатларни Муҳаммад Шариф Девон, Муҳаммад Ёқуб Ҳаррот Девон, Ҳудойберди Маҳдум ва Ҳудойберди Мухрканлар ушбу ҳужжатларни ёзганликлари тўғрисида фотосурат тасвирланган. Архив ҳужжатларининг тили, хати ва услуби ўзига хос хусусиятга эга. чунки бу ҳужжатлар чет кишилар учун эмас, балки бир кичик гуруҳ учун ёзилган.

XIX асрдаги Хива хонлари архивини тўла-тўқис текшириш ва чуқурроқ ёритиш мақсадида М.Й. Йўлдашев турли ҳил кўшимча материаллардан ҳам фойдаланади. У 1873 йилдан бошлаб хонликнинг охириги кунларигача бўлган даврини ўз ичига олган 333 дафтардан иборат Хива хонлари архивини чуқур ўрганиб чиқади. «Туркистанские ведомости» газетасининг 1873 йилги №50 сонида Хива хонлари архиви ҳозирда Ўзбекистон Марказий давлат архивининг 125-фондида сақланиши тўғрисида айтиб ўтилади.

Архив материаллари орасида Россиянинг Хивага юришида қатнашган А.Л. Куннинг юз варақли кундалик дафтарида муҳим географик ва этнографик маълумотлар ёзиб қолдирилган. Унда Хива хонлиги аҳолиси таркиби тўғрисида маълумотлар ва шунингдек, хонлик аҳолиси 700 минг кишига яқин деб кўрсатиб ўтилган. Хива хонлигидаги даврида шаҳар ва қишлоқларнинг асосий аҳолиси бўлган ўзбеклар ҳаёти тўла тасвирлаб берилди. Айниқса, кўнғирот уруғи тўғрисида қимматли маълумотлар бордир. Шунингдек хонликда яшовчи қозоқлар, қорақалпоқлар тўғрисида ҳам қимматли маълумотлар бериб ўтилади.

Архив ҳужжатларида Хива хони Оллоҳқулихоннинг ўғли деб танитилган Абдулазиз Тўранинг рус армияси зобитларига Хиванинг сиёсий-ижтимоий ҳаёти тўғрисидаги муҳим ҳужжатларни берганлиги қайд этиб ўтилади.



Хива хонлиги тарихини ўрганишда академик В.В.Бартолднинг шахсий архиви алоҳида диққатга сазавордир. Чунки унга Хива тарихини ўрганиш вақтида Хива тарихи музейининг катта илмий ходими А. Болтаевнинг “Хоразм тарихига оид муҳим материаллар” асари муҳим манба бўлади. Унда Хива тарихига оид ҳужжатларни тавсифлаш, ўқиш, ўрганиш ва нашр қилиш жуда муҳим вазифа эканлиги айтиб ўтилади. Улар нафақат Хива хонлигининг тарихини, балки Ўзбекистон тарихини ўрганиш учун ниҳоятда қимматли ва биринчи даражали маълумот ва фактларни ўз ичига олган манба ҳисобланади. Иккиланмай шуни айтиш керакки, бу ҳужжатларни қайси жиҳатдан олиб қаралмасин уларнинг тарихий, иқтисодий, лингвистик, топономик ва маданий қиммати дарҳол кўзга ташланади.

Архившунослик тарихига назар ташласак, Остонова Г.Ю. “Қушбеги архиви Бухоро тарихини ўрганишда асосий манба” (XIX – XX аср бoshлари) асарида Туркистон босқинидан олдинги йилларда архив манбалари мазкур ўлка хонликларида мавжуд бўлган ёки бўлмаганлиги масаласида турли баҳслар мавжуд эди. Октябрь тўнтаришига қадар ҳатто рус тарихчи тадқиқотчилари ҳам «ўлка хонликларида архив жамғармаси мутлақо бўлмаганлиги тўғрисида» маълумотлар ёзиб қолдиришган. А.А. Семёнов, В.А. Вяткинлар шуни тарғиб қилганлар. Масалан: В.А. Вяткин ўша пайтдаги сўровларга, «Сиз мендан хат орқали Туркистонни руслар босиб олиш пайтида бу ердаги шахсий ва бошқа архивлар бор ёки йўқлигини сўрагансиз, ўлкада ҳеч қандай шахсий архивлар бўлмаган, бундан ташқари, давлатга қарашли архивлар ва қоғозлар омбори ҳам бўлмаган» деб жавоб берганлиги айтиб ўтилади.

Ваҳоланки, 1931 йилда Бухоро амирлигининг арки ертўласида тартибсиз ётган 77764 дона ҳужжатлар ўрами топилган. Бу ўрамлар араб графикасида тожик тилида ёзилган. Улар кўриб чиқилгач, Ўзбекистон Марказий давлат тарихий архивига топширилган. Кейинроқ, бу архивлар тартибга солиниб, «Қушбеги маҳкамаси архиви» деб номланади.

Бугунги кунда «Қушбеги маҳкамаси архиви» ҳақида қатор тарихчи олимларимиз илмий тадқиқот ишлари олиб бормоқдалар. Жумладан, тарихчи олимларимиздан Г.Ю. Остонова, А. Муҳаммаджоновлар мазкур архив тўғрисида қатор илмий мақолаларни эълон қилишди. Илмий мақолаларда Бухоро амирлигига қарашли ҳудудлар географияси ва экологик шароити, жой номлари топонимлари ҳамда бу ҳудудларда содир бўлган даврий ўзгаришлар ўз аксини топган.

Ҳозирда «Қушбеги маҳкамаси архиви» Ўзбекистон Марказий архивида сақланмоқда. Бу ерда Бухоро амирлигига тегишли 100 мингга яқин тарихий ҳужжатлар 126-рақами билан қайд этилган. Сақланаётган архив ҳужжатлари асосан XIX аср охири XX аср бошлари, яъни, Бухоро амирлигида манғитлар сулоласи ҳукумронлик йилларига оиддир. Бу тарихий хазина 77764 дафтар (дело) дан иборат.

«Қушбеги маҳкамаси архиви»да Бухоро амирлигига қарашли ҳудудлар, уларнинг бошқарув тартиби ҳақида тарихий маълумотлар берилган бўлиб, улар фан учун ниҳоятда қимматлидир. Масалан, амирликда жойлашган 27 та вилоят, 11 туман 306 амлоқдорлик, 250 мавзуи, 4969 та масжид ҳамда 10000 дан ортиқ кишлоқ, «даҳа», «бекча», «кўрғонча», «равоба» каби жой номлари қайд этилган. Тарихчи А.Муҳаммаджоновнинг фикрича, 80 та кишлоқ аҳолиси жойлашган ҳудуд бир туман деб ҳисобга олинган. Шунингдек, архив ҳужжатларида айрим вилоятлар гузарларга (Нурота) яъни равобаларга (Қоратегин) ҳамда оқсоқолликларга (Рушон ва Шуғнон) бўлинганлиги ҳақида ҳужжатлар гувоҳлик беради.

Ҳужжатларда Кармана вилояти ҳақида ҳам маълумотлар бўлиб, унда ҳар бир амлоқга қарашли мавзелар ва шу мавзей ҳудудида жойлашган масжидлар, ҳар бир масжидга бириккан турар жойлар номма - ном қайд этилган. Энг муҳими шундаки, ҳудудлардаги масжидлар сони ҳам архив ҳужжатларида номма–ном берилган. Архив ҳужжатларида жами 4969 та масжиднинг номи қайд этилган. Бу маълумотлар мазкур ҳудудларда яшовчи аҳолининг ижтимоий – иқтисодий ҳаёти ҳақида ҳам аниқ маълумотлар бера олади. Кармана вилоятига тегишли Коми Муг (Конимех) амлоқдорлиги ҳам ҳудудлари кенг бўлганлиги сабабли туман деб юритилиб, уни амир томонидан тайинланган бек бошқарган.

Адабиётлар рўйхати.

1. Крачковский И.Ю. Предисловие к книге П.П. Иванова “Архив Хивинских ханов XIX в”. Л. 1940 ст. 17.

2. Йўлдошев М.Й. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. Т. 1960 13 б. 3. Остонова Г.Ю. Қушбеги архиви. Бухоро тарихини ўрганишда асосий манба (XIX – XX аср бошлари). Т. 2002. Тўплам, №11.



TARIX FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUV

Mahkamova Muqaddam Egamberdiyevna,
Namangan viloyati, Norin tumani,
25- maktabning tarix fani o‘qituvchisi
Tel: +998 94 2726471

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish darsni jonli tashkil etishni ta’minlashi, berilgan materialni to‘la tushunishga zamin yaratilishi muayyan iqtidor sohibi bo‘lgan o‘quvchilarning qirralarini yaxshiroq ochishga, uning ijodkorligini rivojlantirishga imkon berishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, interfaol, ko‘nikma, malaka, metod, zamonaviy, qodiliyat

Yurtimiz kelajagi, xalqimiz, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, milliy ta’lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish, ta’lim tizimini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog‘liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan barkamol tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo‘lishi uchun avvalo ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko‘tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etyapti. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi kunda tarix fanlarini o‘qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko‘nikma va malakani shakllantirish orqali o‘quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni maqsad qilib olinadi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quv jarayoni markazida o‘quvchi bo‘lmog‘i lozim va o‘quv jarayoni unga qaratilgan, yo‘naltirilgan bo‘lishi talab etilmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchining o‘quv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. Bunday ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o‘z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bu holatning ijobiy kechishi ta’limda sifat va samaradorlikning kafolatidir. Tarix darslarini o‘qitishda quyidagi interfaol metodlardan hamda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini ortishda ahamiyati katta. Psixologlarning ta’kidlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Jumladan: «Mini-leksiya», «Aqliy hujum», «Klaster», «Venn diagrammasi», «Bilaman (Bilishni xoxlayman) Bilib oldim», «INSERT», «Sinkveyn», «Zakovat o‘yini», «To‘g‘ri top» o‘yini, «Kim biladi?» o‘yini, «Rol ijro etish» o‘yinlaridir. Keling shulardan «Bilaman (Bilishni xoxlayman) Bilib oldim» metodini tarix darslarida qanday foydalanishni ko‘rib chiqamiz.

BBB metodi- Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Ushbu strategiya jadval yordamida matn mazmunini tushuntirishga qaratilgan. Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar. “Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo‘limlarini to‘ldiradilar. Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar. Mustaqil/kichik guruhlarda jadvalning 3 bo‘limni to‘ldiradilar. O‘qish jarayonida o‘quvchi axborotni o‘zi uchun naqadar ahamiyatli ekanliging aniqlaydi va yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Bilaman (Bilishni xoxlayman) Bilib oldim jadvali yozuv taxtasiga yoki (katta qog‘ozga) tayyorlanadi:

B/B/B JADVALI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.		
2.		
3.		
4.		

1. O‘qituvchi matn mavzusi bo‘yicha savol beradi va juftliklarda yoki kichik guruhlarda aqliy xujum o‘tkazadi. 2. Aqliy xujum natijasida paydo bo‘lgan g‘oyalarni “Bilaman” ustuniga yozib chiqadi. 3. Parallel ravishda paydo bo‘layotgan savollarni “Bilishni xohlayman” ustuniga



tuldiradi. 4. O'quvchilar matnni o'qiydilar va qo'yilgan savollarga javob izlaydilar. 5. O'qituvchi o'quvchilardan qo'yilgan savollarga javoblarni topgan yoki topolmaganligini aniqlab, topilgan javoblarni "Bilib oldim" ustuniga yozib chiqadi. 6. O'qituvchi o'quvchilardan qo'yilgan savoldan tashqari, yana qanday yangi ma'lumotlarni bilishlarini aniqlab, bu javoblarni xam "Bilib oldim" ustuniga yozib chiqadi. 7. "Bilaman" ustuniga yozilgan g'oyalar qanchalik to'g'ri ekanligini o'quvchilar bilan muhokama qiladi. 8. Javobsiz qolgan savollarga e'tibor berish kerak. Bu savollarga javoblarni o'quvchilar qayerdan olishlari mumkinligini muhokama qilinishi darkor. Ushbu strategiya o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, axborotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi, axborotni qisqa va lo'nda shaklda yozma ravishda ifoda etib berish ko'nikmalarini hosil etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, darslar bir xillik, umumiy yondashuv, bir xil qolipdagi ta'limiy faoliyatdan qochishni taqozo etadi. O'quvchilar olgan bilimlarini yangicha qo'llashda o'qituvchi qo'llanma, darslikdan tayyor holda bermaydi, u o'quvchi tomonidan izlab topiladi. Mana shu holat izlanuvchanlik, sinchkovlik metodida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday darslar o'quv materiallarini o'quvchi tomonidan shaxsiy xatti - harakatlari orqali tez, soz o'zlashtirishlarga kafolat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008.
2. J.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva. "Interfaol ta'lim sifat kafolati".- T.:2008.



“ОЙНА” ЖУРНАЛИ ТУРКИСТОНДАГИ ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИШДА МУҲИМ МАНБА СИФАТИДА

Тайронов Бунёджон Рапиқович
Наманган вилояти Поп туманидаги
47-ўрта мактабнинг тарих фани ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада XX аср бошларида Туркистонда янги усул мактабларининг ташкил этилиши ва уларнинг фаолиятини “Ойна” журналида ёритилиши баён қилинган.

Калит сўзлар: Туркистон, янги усул мактаблари, савдогар, журнал, ташаббус, хайрия, тадбиркорлар.

XX аср бошларида “Ойна” журналида минтақадаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий жараёнлар билан бирга янги усул мактабларининг фаолиятлари ҳам мунтазам ёритиб борилган.

Масалан, Самарқанд вилояти Хўжанд уездига қарашли Хаптуз қишлоғида миллатпарвар бойлардан бири Саид Бобохон Тўра ўғли 200 нафарга яқин бола сиғадиган янги усулдаги мактаб барпо этган ва унга ўқитувчи қидириб “Ойна” журналининг 1914 йил 42 сонига эълон берган. Мурожаат қилувчилар учун манзил рус тилида қуйдагича берилган; “Стан. Хадженть Самарқанд обль. селение Кастакось. Саид Бабахану Тураеву”. Шунингдек, Самарқанд вилоятининг Жиззах шаҳарида биринчилардан бўлиб савдогар Аҳмаджон Носирбой ўғли янги усул мактабига асос солиб, жойидаги ўқувчиларнинг замонавий илм олишини таъминлашга муносиб ҳисса қўшган. Шу билан бирга Самарқанд шаҳрининг Тошҳовуз гузарига Муҳаммад Аминбой ҳам “Мактаби ислоҳ” номли янги усулдаги таълим масканига асос солиб, атрофдагиларнинг олқишларига сазовар бўлган.

Яна ўша Самарқанд шаҳрида “Дорул адаб” номли янги усул мактаби 1914 йил очилган бўлиб, бу ҳақида “Ойна” нинг ўша йилги 46-сонига маълум қилинган. Аммо, ушбу мақоланинг муаллифи ҳам мактаб ким тамонидан ташкил этилганлиги ҳам номаълум қолган.

Самарқанд уездининг Пахлавон ариқ волостининг бошлиғи Абдувосит мингбоши ҳам тадбиркор Аҳмадхўжа Содик ташаббуси билан Азиза мавзеида янги мактаб ташкил этишга яқиндан кўмаклашган. Бу ерда дастлаб, 24 нафар ўқувчи таълим олган. Мазкур ўқув даргоҳига керакли жиҳозлар ва қилинадиган сарф-ҳаражатлар учун шу уезднинг банклари 183 сўм¹ миқдорида маблағ ажратган. Бу Самарқанд атрофидаги қишлоқлар орасида янги усулдаги биринчи мактаб бўлиб, “Ойна” таҳририяти унинг ташкил қилганларга миннатдорчилик билдирган. Бундан кўриниб турубдики, янги усул мактаблари фаолиятини йўлга қўйишда нафақат тараккийпарварлар ва тадбиркорлар балки, ҳукумат аъзолари ҳам ташаббус кўрсатишган.

Фарғона вилоятига қарашли Хўқанд уездида Муҳаммад Абулқосим ўғли шаҳардаги Қипчоқ ариқ маҳалласининг масжиди ёнига икки хонадан иборат янги усул мактаби учун бино барпо қилган. Ушбу мактаб 150 нафар болага мўлжалланган бўлиб, мазкур мактабга муаллимликка Абдулвахоб унга ёрдамчиликка эса Ҳакимжон Мирзоали ўғиллари тайинланган. Уларнинг ташаббуслари билан қисқа вақт ичида ушбу мактаб ўқувчиларнинг сони 60 нафардан 90 га етган.

Шу билан бирга “Ойна” журналининг 1914 йил 15 сонига Хўқанд шаҳрида Орифжонбой томонидан “Мактаби Рашидия исломияси” номли янги усул мактаби очилганлиги тўғрисида маълумот берилган. Бу ҳақида тўлиқ хабар беришларини таҳрират кўқонлик журналхонлардан сўраб қолган. Шу каби кўплаб хабарлар “Ойна” журналининг ҳар бир сонига бериб борилган.

Хулоса қилиб айтганда, “Ойна” журналида Туркистондаги турли ҳудудларида ташкил топган янги усул мактаблари ҳақидаги янгиликлар мунтазам ёритиб борилган.

¹ Кўрсатилаётган даврда 1 та қўйнинг баҳоси 2,5-3 сўмни ташкил қилган.



Фойдаланилган манбалар:

1. Муаллим керак.// Ойна, 1914, №42, 1016-б.
2. Жиззахда мактаб.// Ойна, 1914, №12, 287-288-б
3. Самарқандлик муаллим. Ташаккур.// Ойна, 1914, №18,.259-б.
- 4.Дорул адаб мактаби.// Ойна, 1914, №46, 1105-б.
- 5.Маҳаллий хабарлар. Янги мактаб.// Ойна, 1914,№31, 609-б.
- 6.Ақобир Мансурий. Хўқандда янги мактаб.// Ойна, 1913, № 10, 234-б.
- 7.Хўқандда мактаби Рашидия исломияси.// Ойна, 1914, №15,332-б.



“BOBURNOMA”DAGI AYRIM ONOMASTIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Rajabov Feruz Umarqulovich
QarDU magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma” badiiy matnida keltirilgan onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari, Boburning lingvistik va poetik birliklarni qo‘llash mahorati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, toponim, iyhom, o‘ron, metafora, metonimiya.

“Tilshunoslik fani badiiy adabiyot bilan uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo‘lib qolmay, balki tinglovchiga ta‘sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an‘anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o‘rganish obyektidir”, – deb yozadi A.Nurmonov va Sh.Iskandarova. Boshqacha aytganda, lingvopoetika badiiy nutqni o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limidir. Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Lingvopoetika masalasi bo‘yicha keng ko‘lamda ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, “Boburnoma” asarida ham lingvopoetik vosita sifatida keluvchi onomastik birliklarni ko‘rishimiz va tahlil qilishimiz mumkin. Bobur asarda “... Bayanaga qalandar piyodani jo‘natib, Nizomxonga va‘da va tahdid bilan farmonlar yuborildi. Mana bu qit‘a badiha qilib, yozib yuborildi:

Bo turk siteza makun, ey miri Bayana,

Choloki-yu mardona turk ayonast.

Gar zud nayoi-yu nasihat nakuni go‘sh,

Onjoki ayonast chi hojat ba bayonast.” [1; 410]

deb yozganini ta‘kidlaydi. Bu baytda nido san‘ati qo‘llangan. Nido san‘ati **ey miri Bayana** so‘zi orqali namoyon bo‘lyapti. Shu o‘rinda **ey miri Bayana** shakldagi *undalma* orqali metonimiyani ham ko‘rish mumkin. Badiiy parchada Alisher antroponimi orqali o‘sha davrda Alisher Navoiyning qanchalik mashhur ekanligini bilib olishimiz mumkin. Asli antroponim bo‘lgan Alisher atoqli oti lingvopoetik jihatdan “**nozi Alisheriy**”, “**poloni Alisheriy**” xrematonimlarga aylanib, matnda *metonimiya* ma‘no ko‘chimini hosil qilgan: “... Alisherbek ko‘p va yaxshi narsalar ixtiro qilgan edi. Mabodo, biror kishi qaysidir ishda bir yangilik yaratsa, u narsaning rivoji va ravnaqi uchun uni “**Alisheriy**” deb atardilar. Ba‘zilar hazil bilan Alisherbekka nisbat berar edi. Chunonchi, Alisherbek quloq og‘rig‘ida ro‘mol bog‘lagani uchun xotinlar ko‘k ro‘molni qiyshaytirib “**nozi Alisheriy**” deb atadilar. Binoyi ham Hirotdan jo‘nash vaqtida eshagi uchun to‘qim tikuvchiga hech kimda mutlaqo uchramagan o‘zgacha bir to‘qim buyurtiradi va otini “**Alisheriy**” deb ataydi. U “**poloni Alisheriy**” nomi bilan mashhur bo‘ldi”. [1; 261]

“...So‘n daryosining pastida juda qalin daraxtlar ko‘rindi. U yerni **Maner** deb aytdilar. Shayx Sharafuddin Maneriyning otasi Shayx Yahyoning qabri o‘sha yerdadir. Modomiki, shuncha yaqin kelib qolgan ekanmiz, So‘ndan kechib o‘tib, So‘ndan ikki-uch kuro‘h quyiga tushib Manerni sayr qildik. Bog‘lardan o‘tib, mozorni tavof qildik. So‘n qirg‘ogiga kelib, g‘usl qildik, peshin namozini ado qidib, o‘rda tomonga yo‘l oldim...” [1; 499] Bu parchada **Maner** teonimi keltiriladi. So‘ng bu teonimning etimologiyasi bilan tanishtiriladi va bu teonim antroponim asosida shakllanganligini bilib olamiz. Shundan kelib qaraydigan bo‘lsak, **Maner** teonimi lingvopoetik jihatdan *metonimiya* asosida ma‘nosi ko‘chganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga bu parchada keltirilgan “**So‘ndan kechib o‘tib, So‘ndan ikki-uch kuro‘h quyiga tushib Manerni sayr qildik**” gaplarida *metonimiya* ko‘chimi badiiylikka, nutqiy tejamkorlikka sabab bo‘lgan. Bajavr toponimi orqali so‘z o‘yini qilingan, ya‘ni Bajavr so‘zi “*qal‘a*” nomi va “*zulm bilan*” ma‘nosida qo‘llangan:

Qaror-u ahd bo yor inchunin nabud maro,

Gazid harj-u maro kard beqaror oxir.

Ba ishvahoyi zamona chi chora sozad kas,

Bajavr kard judo yorro zi yor oxir. [1; 307]

Bu o‘rinda iyhom san‘atini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan *shakldoshlik* xususiyatiga ega Bajavr toponimidir.



“...*Kechik ro'parasiga tushgani va o'ziga tortadigan joy bo'lganligi bois “Nazargoh” deb atagandik, bu yerlarga ham yaxshi nihollar ekish kerak...*” [1; 487] Bu yerda **Nazargoh** toponimi *metonimiya* ko'chimi uchun asos bo'lgan.

“*“Boburnoma” orqali o'sha davr harbiy tizimiga xos bo'lgan harbiy muomala, harakatlarni bildiruvchi bir qator terminlarni kuzatish mumkin. Shunday harbiy muomala vositalaridan biri o'ron adashuv (parollashuv)dir. O'ron leksemasining mo'g'ulcha ekanligi qayd etilgan: o'ran m. “parol, chaqiriq” (THTL,202) Bundan ma'lum bo'ladiki, o'ron adashuv ham dastavval mo'g'ullarda shakllangan. Uran mo'g'ul tiliga xos bo'lib, eski o'zbek tilining ilk manbalaridan bo'lgan «O'g'uznoma»da ham qayd etilgan. Qadimgi turkiy tilda URAN “jangovar shior, parol” (DTS,614); 1) “parol”; 2) “chaqiriq”; 3)“shior; 4)“fabrika markasi” (ESTY,602) ma'nolarida kuzatiladi. Boshqa manbalarda ham keltirilgan (Budagov 1.121, Abushka-100). O'ron adashuv yashirin ma'lumotlarni yetkazishda, do'st-dushmani aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. O'ron har xil narsa-hodisa nomi bilan shartlangan.[3; 204]. “Boburnoma”da toponimlar o'ron(parol so'z) so'z vazifasini bajarganini ko'rishimiz mumkin. O'ron ikki xil bo'ladi: har bir qavmning o'roni bor. Chunonchi: ba'zi qavmning o'roni „durdona“dir va ba'zisiniki „to'qboy“ yoki „lulu“; yana boshqasi: butun lashkarga jang payti ikki so'zni o'ron qilib qo'yadiki, zarur vaqtda har qayerda uchrashganda, biri bir so'zni aytsa, yana biri o'sha aytilishi kerak bo'lgan ikkinchi so'zni aytadi. Ana shu yo'sinda el yovdan ayriladi va o'z kishisini yotdan farq qiladi. “...Bu yurishda rasmiy o'ron “Toshkand” bilan “Sayram” so'zlari edi. “Toshkand” desa, “Sayram” deyilgay va “Sayram” desa, “Toshkand”. Bu to'polonda Xoja Muhammadali ilgariroq ekan. Mo'g'ullar: “Toshkand, Toshkand”, deb kelganda Xoja Muhammadali sarosimada qolib, javoban u ham “Toshkand, Toshkand” , deydi...”[1; 171] Ushbu matnda asli toponim hisoblangan **Toshkand** va **Sayram** kabilar keltiriladi. Ammo bu toponimlar matn parchasida o'z ma'nosida qo'llanmagan, balki matnga boshqa ma'noda kelib qo'shimcha ma'no beryapti. Bu esa *metonimiya* ko'chimi asosida konnotativ ma'no aks etgan.*

“...*Shohi Kobul tog'idan bir qoya-tumshuq ayrilib turipti, uni Uqobayn (ikki burgut) deydilar. Uqobayn qoyasidan boshqa yana bir parchagina tog' tushgan bo'lib, Kobul qal'asining arki bu tog'ning ustidir...*”.[1; 199] Bu parchada **Uqobayn** toponimi metafora usulida nomlangan. Chunki qoya uqob(burgut) qushi shakliga o'xshagan.

“...*Xuddi, arablar arabdan boshqani “Ajam” deganlaridek, hindistonlik hindistonlik bo'lmaganlarni “Xuroson” deydi* ”. [1; 199] Bu tushunchalar tarixiy jihatdan juda muhim. Chunki o'sha davrda **Xuroson** va **Ajam** nomlari ancha keng ma'noda, katta hududga nisbatan qo'llanilgan. **Xuroson** va **Ajam** toponimlari *metonimiya* ko'chimini hosil qilgan.

“...*Suhayl yulduzini sira ko'rmagan emasdim. Dovonga chiqqan zahotiyoq osmonning janub tarafi pastida yorug' yulduz ko'rindi. Shu Suhayl emasmikin dedim. Shuhayldir, dedilar. Boqi Chag'oniyoniy bu baytni o'qidi:*

*Tu Suhayli, to'kujo tobi-yu kujo toli' shavi,
Chashmi tu bar har ki meaftad nishoni davlat ast.*

(Mazmuni:

Sen Suhaylsen, qayda balqib, qayda porlaysan ekan,

Ko'zlaring har kimga tushsa, bo'ldi davlatdan nishon.)“ [1; 195]

Bu nasriy va she'riy matnda Suxayl astronomi keltirilgan. She'riy misrada keltirilgan *Suxayl* astronomi, bizningcha, *istiora, metafora* kabi badiiy hamda lingvistik vositalarni hosil qilgan. Chunki o'z ma'nosida yulduz nomi sifatida va ko'chma ma'noda Boburning o'ziga ham ishora qilinyapti.

Bobur Sayfiy Buxoriy haqida gapirib, uning dostoni yo'qligini aytadi va bu holning talili deb ushbu qit'ani keltiradi:

Garchi doston she'r sunnatidir,

Men g'azalni farzi ayn deyman.

Dilkashgina besh baytni, rosti

Ikki “Xamsa” dan ustun qo'yaman. [1; 261]

Qit'ada Sayfiy Buxoriy *“Xamsa”* bibliyonimi orqali so'z o'yini qilgan. U bu misralarda g'azal janrini alohida ko'rsatib o'tib, besh baytni o'sha davrda mashhur bo'lgan ikki forsiy *“Xamsa”*, ya'ni dostonidan ustun qo'yadi. Bilamizki, *Xamsa* so'zi ham *“beshlik”* degan ma'noni bildiradi. Shundan kelib qarasaq, *“besh bayt”*ni *“ikki beshlik”*dan ustunligini qo'yaman, deydi.



“...Yana bir amiri Hasan Ya’qubbek edi. Bolatabiat, iste’dodli, chechan va samimiy kishi edi.
Bu bayt unikidir:

*Boz oy, ey humoy, ki beto ‘tii xatat,
Nazdik shud ki, zog‘ barad ustuxoni man.*

(Mazmuni:

*Qaytib kelgil, ey Humoy, to ‘tirang patlaringsiz,
Sal bo ‘lmasa suyagimni qatg‘a olib ketgusi.)” [1; 71]*

Bu misralar orqali Bobur Hasan Ya’qubbekning fe’l-atvori bilan birga *Humoy* ornitonim bilan bolalarcha tabiati ko’rsatiladi.

Asarda ...Bahor viloyati chegarasida 4 ta yirik kemaga ot qo‘ygan: “Osoyish” , “Oroyish” , “Gunjoyish” , “Farmoyish” (nautonimlar). [1; 508]. Barchasi fors tili zamirida nomlangan. Faqat 1 ta kemanding nomlanishi haqida aniq ma’lumot qoldirgan. “Qarorgohga yetib kelgach, kemalarga nom qo‘ydik. Ograda Raana Sangaaga qarshi urushdan oldin qurilgan birinchi sinashta katta kemaga „**Osoyish**“ deb ot qo‘yildi. O‘sha yili qo‘shin jangga otlanishida **Oroyishxon** bir kema yasatib, menga tortiq qilgandi. Mana shu safar kelayotganimizda unga taxtasupa o‘rnatirdim. Bu kemaga „**Oroyish**“ deb ot qo‘ydik”. [1; 508] So‘nggi sahifalarda shu nomlardagi kemalar harakati, ularda yuz bergan voqea-hodisalar haqida ma’lumotlar yozib qoldirgan. Nomshunoslik tarixi uchun bu qaytlov muhim ahamiyatga ega. O‘tmishda o‘zbek xalqi faqat kishilarga va joylargagina emas, boshqa narsalarga ham nom qo‘ygan. Bu borada Bobur zikriyoti va “Boburnoma” asari taxsinga sazovordir [2; 42]. X

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ma’lum bo‘ladiki, Tilshunos T.Nafasov ta’kidlaganidekki, “Boburning nomshunoslik merosi maxsus tadqiq etilishi zarur mavzu”dir. Shuningdek asardagi onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari tahlili, asardagi biz uchun noma’lum bo‘lgan birliklarning yanada yangi qirralari ma’lum bo‘ladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Z. M. Bobur “Boburnoma”, T.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. Bobur va o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993.
3. Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi. Filologiya fanlari doktori diss. avtoref. -Toshkent, 2008.



QADIMGI XORAZMLIKLARNING DINIY E'TIQODLARIDA SHOMONLIKNING IZLARI

Allanazarov Sirojbek Bekchan o'g'li

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi
+998993473605

E-mail: sirojbek.allanazarov@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida qadimgi Xorazmliklarning diniy e'tiqodlarida muhim rol o'ynagan shomonlik dini haqida so'z boradi. Shomonlik bilan bog'liq urf-odatlar va marosimlarning mazmun-mohiyati atroflicha taxlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shomonlik, g'ayrtabiiy kuchlar, marosim, po'rxonlar, parilar, ziyon-zahmat.

O'rta Osiyo xalqlari orasida shomonlik e'tiqodi azaldan keng tarqalgan bo'lib, uning asosida ruhlar va g'ayritabiiy kuchlarga ishonish va ulardan qo'rqish yotadi. Mavjud adabiyotlarda shomonlik termini bilan birga "shamanizm" atamasi ham uchraydi. Shomonlik deganda shomon faoliyati bilan bog'liq marosim va asotirlar tushuniladi. Shomoniylilik atamasi esa kundalik hayotda shomonlar muhim rol o'ynagan xalqlar qarashlari tizimiga aytiladi.¹

Shomonlik atamasi turli manbalarda turlicha ko'rinishda keltiriladi. Mamlakatimiz hududlarida esa uni po'rxonlar, folbinlar tarzida jaranglaydi. Xorazmda bundan tashqari "o't alaslovchi" atamasi ham mavjud bo'lib, uning ma'nosi ham aynan shomonlik bilan shug'ullanuvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bundan tashqari ayrim adabiyotlarda Xorazm hududidagi shomonlik "parixon" tarzida ham qo'llanilishi aytib o'tiladi.²

Shomonlik dinini tadqiq etish jarayonlari XIX asrda boshlangan. Chunki shu davrda olimlar tomonidan insoniyat yaratgan ilk moddiy va manaviy madaniyatga qiziqish jahon miqiyosida orta borgan.

Ilmiy adabiyotlarda shomonlik dini insoniyat tomonidan yaratilgan eng qadimgi din shakllaridan biri sifatida tan olinadi va uning paydo bo'lishini tosh davriga borib taqaydilar. Bu fikrni asosli deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Nega deganda manbalarda keltirilishicha, shomonlik ovchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi urug'lar orasida rivojlangan. Dehqonchilikning asta-sekin taraqqiy etishi bilan odamlar tabiat kuchlarini ilohiylashtira boshlaganlar. Natijada jamoa a'zolari orasida shomonlik o'z ahamiyatini oldingiga nisbatan yo'qota borgan. Dehqonchilikning neolit davrida paydo bo'lganini inobatga olsak, shomonlik neolitga qadar bo'lgan davrda paydo bo'lgan.³

Shomonlik haqidagi dastlabki ma'lumotlar X asrga talluqli bo'lgan adabiyotlarda uchratish mumkin. Qadimgi turklar shomonlarni "qomlar" deb ataganlar. Bu haqidagi dastlabki ma'lumotlarni X asrda yozilgan xitoy yilnomasi hisoblanadigan "Tan-shu"da uchratish mumkin.⁴

O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning tasavvurlari va urf-odatlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Jumladan "Avesto"da shomonlikning ko'rinishi bo'lgan parilar haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ular "payrika" shaklda keltirilgan.⁵ O'zbek xalqining islom dini kirib kelmasidan oldingi dinlari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan manbaalardan yana biri Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari hisoblanib, unda qadimgi xorazmliklar va sug'diylarning dastlabki diniy tasavvurlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan ushbu asarda shomonlikning asosiy unsurlari sifatida parilar e'tirof etiladi.⁶

Xorazmliklarning kundalik turmush tarzida shomonlik dinining muhim ahamiyat kasb etgani anglash qiyin emas. Nega deganda hozirgi kunga qadar bo'lgan davrda ham xorazmliklarning maishiy turmush sharoitlarida qo'llaydigan ayrim udumlarida shomonlikning izlarini yaqqol ko'rish mumkin. E'tiborli jihati O'rta Osiyo xususan, O'zbekiston Respublikasining boshqa

¹ Ashirov, A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T.: 2007. B.-32.

² Басилов, В.Н. Шаманство у народов Средний Азии и Казахстана. М.: 1992. С.-48.

³ Басилов, В.Н. Избранники духов. М.: 1984. С.-10.

⁴ Бичурин, Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средний Азии древние времена. М.: 1957. С.-353.

⁵ Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik/Asqar Mahkam tarjimai. T.: 2001. B.-48.

⁶ Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. T.: Fan. 1968. B.-486.



viloyatlariga nisbatan bu yerda shomonlik qoldiqlari anchayin yaxshi saqlangan. Qayd etish kerakki, mazkur tadqiqot ishimiz hozirgi davr aholisi o'rtasida o'tkazilgan o'rganishlarga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda shamanizm bilan bog'liq urf-odatlariga ayrim o'zgartirishlar kiritilgan bo'lishi mumkin.

Inson tabiat injiqlari va turli ofat va balolar oldida o'jizligi tufayli eng qadimgi odamlar ana o'sha narsalarni ilohiylashtira boraverganlar. Natijada yuzaga kelgan diniy tartib-qoidalarning amaliyotga joriy etilishi va odamlar ushbu amallarni to'g'ri bajarishini nazoratga oluvchi alohida odamlar toifalari shallangan. Ular shomonlar bo'lib, tabiat kuchlariga qarshi xudo bilan aloqaga kirishgan holda omonlik so'ragan. Shomonlar turli ko'zga ko'rinmas kuchlar ta'siriga tushib qolgan odamlarni ularning ziyon-zahmatlaridan olib chiqqanlar. Bugungi kungacha ham ruhlar, jinlar va parilar bilan aloqaga kirisha oladigan odamlar mavjud bo'lib, ular odamlarni davolash bilan shug'ullanadilar. Keksa axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga qaraganda shomonlik ilmini egallash uchun tanlanish kerak. Ya'ni bunda jin va parilar, ajdodlar ruhlari odamlar orasidagi ayrim kishilarni tanlab oladilar va ularni turli yo'llar bilan shomonlikka davat qiladilar. Ular tanlangan odamga turli qiyofalarda ko'rinishadi. Toki tanlangan odam rozi bo'lmaguncha uni qiynash davom etadi. Bunda ruhlar tomonidan odamga shomonlik vositalari ya'ni tasbex, childirma, qamchi taqdim etiladi. Urganch tumanidan axborotchimizning ma'lumotlariga qaraganda uning tushida doimiy ravishda oppoq kiyim kiygan nuroniy chollar qo'lga chaqaloq beradilar. Bunda shu kishi chaqaloqlar bilan shug'ullanadigan shomon bo'ladi. Shomonlik uchun alohida qobiliyat shart emas. Bunga maxsus tayyorgarlik asosida erishish mumkin. Biroq shomonlik ilmini olish uchun fotixa olish zarur bo'lib, uning uchun odamlar avliyolarning qadamjolarida ham tunashlari kerak bo'lgan. Islomdan keyin ham bu amal qo'llanilib kelinmoqda. Shunday qadamjolaridan biri Shovotning Beshmergan qishlog'idagi Yusuf Hamadoniy ziyoratgohidir. Shomonlik va sehrgarlik amaliyotining genezisi haqida ma'lumotlar katta qiziqish tug'diradi. Bu kasbni tanlovchilar fotiha olish maqsadida Janubiy Xorazmdagi qadimiy Qalajiq (Bog'ot) istehkomida ham tunaganlar.

Shomonlar urug' va qabilalarda muhim rol o'ynab, kundalik barcha masalalarda ulardan maslahat olingan. Kasallarni turli ko'zga ko'rinmas ruhlar va jinlar ta'siridan olib chiqish qattiq mashaqqatli ish hisoblanib, shomonlar inson tanasidan ularni haydab chiqarish uchun maxsus amallarni bajarganlar. Ilmiy adabiyotlar taxlili shni ko'rsatadiki, oilaviy maishiy marosimlarda, poklanish udumlarida diniy "davolash" usullarida shomonlikda barcha sohalarda olov o'zining g'ayritabiiy xususiyatlari bilan ishtirok qiladi. Shomonlar olovni yoqish orqali g'ayritabiiy kuchlar ta'siriga tushgan odamlarning ustidan aylantirish orqali ularni davolaganlar. Xonqada shunday bir rivoyat borki, jin shomonlar "davolashi" natijasida bemorning og'zidan qurbaqa va ming oyoq shaklida otilib chiqadi. Xorazmda juda e'tiborga loyiq bitta narsa borki, g'ayritabiiy kuchlar odamlarga qo'g'irchoq shaklida ham zarar yetkazishi mumkin. Shomon bunday xolatlarda bemorning kasali singdirilgan qo'g'irchoqni qabristonga tashlashi bilan uni davolagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirov.A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. T.: 2007.
2. Басилов.В.Н. Шаманство у народов Средний Азии и Казахстана. М.: 1992.
3. Басилов.В.Н. Избранники духов. М.: 1984.
4. Бичурин.Н.Я. Собрание свединей о народах, обитавших в Средний Азии древние времена. М.: 1957.
5. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik/Asqar Mahkam tarjimasini. T.: 2001.
6. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. T.: Fan. 1968.

MUHAMMAD RAHIMXON HUKMRONLIGI DAVRIDA XIVA XONLIGI

**Abdurahmanova Diyora Bekmuhamatovna,
Aliyeva Nigora Berdiyevna**
Sirdaryo viloyati Guliston shahar
11-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy – Feruzning hukmronlik yillarida xonlikda amalga oshirilgan ishlar va ularning ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Vatan tarixini o'rganishning ahamiyatini ochib berish bilan birga o'quvchilarda voqea-hodisalardan to'g'ri xulosalar chiqara olish va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: “Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir”, Abdulla Qodiriy, Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz, Muhammad Yusuf Bayoniy, Arabmuhammadxon, Muhammad Aminxon, Sherg'ozixon, Muhammad Yusuf Xoji-Doiy, Mutrib, Faqiriy, Chokar, Otajon Abdalov, “Nisobus-sibiyon”.

“Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir“ deganda buyuk adibimiz Abdulla Qodiriy qanchalik haq edilar. Haqiqatan ham, yosh avlod tarbiyasida o'tmish haqiqatlarini o'rganmasdan turib, hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'biri bilan aytganda“ tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. Buyuk davlat arbobi va madaniyat homiysi Muhammad Rahimxon soniy- Feruzning sharofati bilan XIX asr Xiva saroyi adabiy muhitida o'zbek madaniyati va san'ati maktabi faoliyat yuritdi. Xiva adabiy maktabining tashkilotchisi va bosh homiysi, eng faol ijodkori Muhammad Rahimxon Feruz edi. Butun faoliyati davomida xonlikda madaniyat va san'at rivojiga uning o'zi bosh-qosh bo'ldi. Feruz o'z atrofiga mamlakatning eng yetuk aql-idrok sohiblarini va mohir ijodkorlarni to'plab, ularning ijod qilishlari uchun zarur barcha shart- sharoitlarni yaratib berdi va o'zi ham ularning ijod chamanidan ilhomlandi. Feruzning fazilatlarini haqida Muhammad Yusuf Bayoniy shunday yozadi:“ Ul hazrat ulamoni ko'p do'st tutar erdilar va she'riyati g'arroning (yorqin,jo'shqin) rivojiga sa'y etar erdilar va bag'oyat raiyatparvar va shafqatgustar va odil-u bozil kishi erdilar”.

Ana shunday muhim xislatlarni o'zida mujassam etgan Feruz o'z atrofidagi kishilarning ham o'zi kabi bo'lishini istar edi. U mamlakat ravnaqi ilm-fan, maorif va madaniyat, savdo-sotiq rivoji orqali bo'lishini his etar edi. Shu bois ham Xivadagi Arabmuhammadxon, Muhammad Aminxon, Sherg'ozixon madrasalarida bo'lib, o'qish-o'qitish ishlarini nazorat qilar, mullavachchalarga xazina hisobidan moddiy yordam berar edi. O'z zamonasining yetuk olim va shoirlari ana shu madrasalarda oxundlik, mudarrislik qilardilar. Ilm-ma'rifat bobida Xivadagi Arabmuhammadxon madrasasi mudarrisi Muhammad Yusuf Hoji-doiy yetakchi edi. U arab xalqlari turmushi, urf-odatlarini, islom aqidalarini o'rganib, ona yurtiga qaytgach, Xivadagi yuz nafar mullavachchalar ta'lim oladigan Arabmuhammadxon madrasasiga mudarris etib tayinlanadi. Doiy o'zining to'g'riso'zligi, haqiqatparvarligi bilan ajralib turgan. U hatto Feruzning xon bo'lishiga qaramay, uning ba'zi g'azallaridagi nuqsonlarni tap tortmay tanqid qilar, she'riyat qoidalari bo'yicha unga ta'lim berardi. Doiyning fe'lini yaxshi bilganligi uchun Feruz o'rtadagi mansab tafovutlariga e'tibor bermaslikka intilardi va uni ustodi sifatida chuqur hurmat qilar edi. Doiydan so'ng shoir she'riyatining an'alarini bayoniy, mutrib, faqiriy, chokar kabi taraqqiyparvarlar davom ettirdilar. Feruz milliy madaniyat ravnaqi uchun harakat qilarkan, mulozimlari bilan karvonsaroy atrofidagi hunarmandlarning ishini oyda ikki marotaba kuzatib borgan. Hunarmandlar tomonidan Ogahiy, Mirzo, Bayoniy, Feruz kabi shoirlarning she'rlari ustunlarga va marmar toshlarga shu qadar mahorat bilan o'yib yozilganki, bu obidalar hali-hamon barchani hayratga soladi. Feruz xonlik viloyatlariga safar chog'ida xalqning ahvolini, amaldorlarning xalqqa munosabatini o'rgangan, yomonlarni jazolagan, namunali faoliyat yuritayotganlarni ibrat qilib ko'rsatgan. 1880-yilga kelib xonlikda Feruzning tashabbusi bilan birinchi ambulatoriya punkti ochilgan. Feruz mahalliy fuqarolarning farzandlaridan ilmi kishilarni tayyorlash maqsadida o'z saroyida maktab ham ochadi va tolibi ilmlarni xon hisobidan o'qishiga imkon yaratadi. Feruz xonlik ravnaqi yo'lida tinmay izlandi, toshbosma tashkil etish uchun erondan Ibrohim Sulton ismli matbaachini ishga chorladi, mahalliy yoshlardan Otajon Abdalov unga shogirdlikka tushdi. Saroyda tashkil etilgan



“Podshohi zamon tipolitografiyasi”ning ilk mahsuloti Abu Nasr Forobiyning “Nisobus-sibiyon” nomli falsafaga oid asari 1876-yilda dunyo yuzini ko’rdi. Qisqa vaqt ichida xattotlar kitoblar ustida oylab va yillab bajaradigan mashaqqatli ishlariga chek qo’yildi. Xullas, Muhammad Rahimxon soniy – Feruz xonlikda madaniy – ma’rifiy ishlarni rivojlantirishga bosh-qosh bo’ldi.

Shoir va musiqashunos, tarjimon va xattot, xorazm adabiyoti va san’atining bilimdoni Said Muhammad Rahimxon Soniy-Feruz yaratgan asarlar bugun mashshoqlar tomonidan qo’shiq qilib kuylanmoqda. U tomonidan bunyod ettirilgan madrasa va maqbaralar sayyohlarning sevimli qadamjosiga aylangan. Mohir siyosatdon, adib, musiqashunos va hukmdor Feruzning adabiy merosi bugungi yosh avlod uchun ham o’rnak bo’lishga loyiqdir. Yosh avlod tarbiyasida bu kabi tarixiy voqe’liklardan misollar keltirish, ajdodlar qismati va kechmishlaridan boxabar qilish o’quvchilarni hayotdan saboq olishga, o’z ajdodlariga munosib avlod bo’lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. I.Karimov yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Davlatyor Rahim, Shoxnazar Matrasul. Feruz Toshkent, 2011.
3. Laffasiy. Tazkirai shuaro, Urganch, 1992.
4. M.y. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent, 1994.



ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ МУҲИМ ШАРТИ

НАРГИЗА Шоназарова

Низомий номидаги ТДПУ

Миллий ғоя ва маънавият асослари
кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу тезисда ҳар томонлама етук ва баркамол инсонни тарбиялаш, ўсиб келаётган ёш авлодда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш борасидаги долзарб вазифалар таҳлил қилинган.

Аннотация: В данном тезисе анализируются актуальные задачи в повышении правовой культуры подрастающего молодого поколения и воспитания гормонально развитой личности во всех ее отношениях.

Annotation: This thesis analyzes the urgent tasks in improving the legal culture of the younger generation and the upbringing of a hormonally developed personality in all its respects.

Бугунги кунда ҳар томонлама етук ва баркамол инсонни тарбиялаш давлатимиз ва жамиятимиз олдида турган муҳим вазифага айланди. Дарҳақиқат, инсоннинг ҳар томонлама уйғун камол топиши ва унинг манфаатларини рўёбга чиқариш механизмларини яратиш республикамизда амалга оширилаётган ислохотларнинг асосий мақсади ҳисобланади. Барчага маълумки, юксак маданиятли инсонга хос бўлган фазилатлардан бири бу – ҳуқуқий маданиятга эга бўлишдир.

Ҳуқуқий маданият серқирра ва мураккаб воқелик сифатида шахс ва жамиятнинг ҳуқуқий онги даражасини, яъни ҳуқуқий борликни онгли равишда идрок этишини, аҳолининг амалдаги қонунларини билиши ва уларни ҳурмат қилишини, қонунларни амалиётда қўллай олишини ўзида мужассам этади.

Бу борада ҳуқуқшунос олим И.А.Ильин шундай таъкидлаган эди: “ўз мамлакати қонунларини билмайдиган халқ ҳуқуқдан ташқарида ҳаёт кечиради ёки ҳуқуқнинг бекарор куртаклари билангина кифояланади... Халқ қонунларни муносиб равишда билиши зарур, чунки бу хусусият ҳуқуқий ҳаёт таркибига киради. Шунинг учун ҳам халқ ҳуқуқни билишдан маҳрум бўлган тартиб бемаъни ва хавфлидир...Маънавий мавжудот сифатида инсон Ер юзида ҳуқуқдан ташқарида яшаши мумкин эмас”¹.

Ҳуқуқий маданият кенг маънога эга бўлиб, шахснинг қонунга, давлат томонидан ўрнатилган тартиб, қоидаларига риоя этишдаги хулқи, муносабатини билдиради. Ҳар бир инсон табиат, жамият ва давлат тизимида юзага келадиган муносабатларда фаол иштирок этиши учун ундан юксак ҳуқуқий маданиятга эга бўлиши талаб этилади. Ҳуқуқий маданиятли бўлиш учун қонун нормаларинигина билиш кифоя қилмайди.

Энг асосийси бу қонунларни бажариш, уларга ҳурмат билан қараш, қонун олдида ўз бурчини ҳис қила олиши лозим. Яъни, “ҳар бир фуқаро шахсига нисбатан олганда, ҳуқуқий маданият – бу ҳуқуқни билиш ва тушуниш, унинг кўрсатмаларини онгли равишда бажаришдир”².

Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш учун, энг аввало, ҳуқуқий таълим ва тарбия тизимини такомиллаштириш зарур. Зеро, “жамиятнинг демократия йўлидан жадал ривожланиши ва бу борада амалга оширилаётган ислохотларнинг муваффақияти, кўп жиҳатдан, одамларнинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданият даражасига боғлиқдир”³.

Мана шуларни инобатга олган ҳолда бугунги кунда таълим муассасаларида таълим олаётган алоҳида шахснинг ҳуқуқий маданияти даражаси ҳам бевосита унинг ҳуқуқий тарбияси билан боғлиқ бўлиб, у ҳуқуқий тарбияли бўлиш учун ҳуқуқий билимларга эга бўлиши, бу билимларни онгли равишда қабул қилиши ва ҳуқуқий маданият сабоқларини олиши керак. Ҳуқуқий тарбия кенг маънода кўпчиликнинг онгига таъсир кўрсатишга қаратилган тарбия, тор маънода эса алоҳида шахсга, унинг онгига таъсир этишдан иборат бўлиб, у ташкилий равишда асосан таълим муассасасида мунтазам олиб бориладиган, аниқ мақсадни кўзлаган ва шахсга (гурӯх шахсларига) таъсир қила оладиган, уларда ҳуқуқий онг, ҳуқуқий билим, амалдаги қонунларга риоя этиш ва ҳурмат қилиш ҳислатларини вужудга келтиришга қаратилган фаолиятдир.

¹ Ильин И.А. О сущности правосознания. – М.: “Образование”, 1993, С.23-24

² Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. –Т.: Адолат, 2007, Б.567.

³ Ильин И.А. О сущности правосознания. – М.: “Образование”, 1993, С.23-24



Хуқуқий тарбия узлуксиз таълим жараёнида талаба ёшларда хуқуқий билимлар асосида хуқуқий онгни шакллантириш, хуқуқий маданиятни юксалтириш борасида ўрта махсус, касб-хунар таълим муассасалари, хуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва жамоатчилик томонидан олиб бориладиган ишлар мажмуидан иборат бўлиб, унинг натижасида қонунчиликни мустаҳкамлаш, хуқуқий нормаларни билиш, уларни хурмат қилишга эришилади.

Хуқуқий тарбия шакллари ҳар бир ўқитувчининг услубида ўз ифодасини топади. Жумладан, “Миллий ғоя, маънавият асослари ва хуқуқ таълими” бакалавриат таълим йўналиши ўқув режасига киритилган хуқуқий фанларни ўқитиш жараёнида талабаларга дарс жараёнида ва дарсдан ташқари вақтда суҳбатда, суҳбатни эса хуқуқий қондаларни ўргатиш, хуқуқий ҳужжатлар намуналари ва уларнинг юридик хусусиятлари билан таништириш тариқасида олиб бориш мақсадга мувофиқ.

Шунингдек, ўқитувчилар ёки хуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари билан савол-жавоблар тарзидаги давра суҳбатлар шаклида ҳам олиб борилиб, бу учрашувларда хуқуқий тарбияга боғлиқ аниқ билимлар берилиши лозим.

Айни пайтда бу жараён босқичма-босқич кенг режа асосида амалга оширилиб, бунда ўқитишнинг ҳозирги замон техник воситаларидан фойдаланилса қутилган натижани беради.

Шу билан бир қаторда мазкур йўналишда доимий равишда хуқуқий тарғибот-ташвиқот ишларини ташкил этиш, бунда талабаларнинг фаол иштирок этишларини таъминлаш, жамоатчилик ўртасида хуқуқий тарбияга оид тадбирларни амалга ошириб бориш ва бу тадбирларга талабаларни кўпроқ жалб этиш, хуқуқни муҳофаза қилувчи давлат органларининг фаолияти билан ҳам талабаларни жадвал асосида таништириб бориш мақсадга мувофиқдир. Бу борада талаба ёшларни хуқуқий билимга ва хуқуқий тарбияга жалб этиш мақсадида хуқуқни муҳофаза қилувчи давлат органлари ходимлари билан тез-тез учрашувлар ўтказилиб, савол-жавоб кечаларини ташкил этиш ҳам қутилган самарани беради.

Талаба ёшларнинг хуқуқий саводхонлигини ошириш, улар ўртасида сиёсий-мафкуравий, хуқуқий тарбияни кўчайтириш борасида “Энг иқтидорли ёш истеъмолчи”, “Сиз қонунни қандай шархлайсиз?”, “Хуқуқимиз–ҳимоямиз!”, “Барҳаёт анъаналар”, “Ёш хуқуқшунос”, “Шунқорлар” ҳарбий спорт мусобақалари, “Конституция-бахтимиз пойдевори”, “Солиқ билимлари болаларга”, “Ягонасан, муқаддас Ватан!”, “Менинг ғоям”, “Энг яхши инновацион фикрлаш”, “Энг фаол маънавият тарғиботчиси” каби кўрик танловларнинг ташкил этиб борилиши талабаларнинг келгусида яхши мутахассис бўлиб етишишига муносиб замин ҳозирлайди.

Бундай тадбирлар ва учрашувларнинг ташкил этилиши ёшларда мафкуравий иммунитетнинг мустаҳкамланишига ҳам ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

Булардан ташқари хуқуқий маданиятни оширишнинг самарали усул ва услубларини ишлаб чиқиш, давлат ва жамоат ташкилотлари учун тегишли тавсия ва қўлланмаларни тайёрлаш, ҳамда махсус ўқув-тренинг курсларини ташкил этиш, бунинг учун уларнинг дастурларини тайёрлаш ҳам талабалар хуқуқий маданиятини юксалтиришда муҳим омиллардан бўлиб хизмат қилади. Бундай ўқув-тренинг машғулотларидаги ҳаётий, содда, раван, тушунарли ва аниқ мисоллар талаба ёшларнинг онгига тезроқ таъсир қилади. Ўз ўрнида мустақил фикрловчи, ҳаётга қатъий эътиқод ва қарашлар руҳида тарбияланган авлоднинг вояга етишига сабаб бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, таълим тизимида хуқуқий таълим ва тарбияни турли шаклларда самарали равишда амалга ошириб бориш ижтимоий фаол ва юксак хуқуқий маданиятга эга бўлган баркамол шахсни шакллантиришга хизмат қилиши, шубҳасиз. Чунки, “биз фарзандларимизнинг нафақат жисмоний ва маънавий соғлом ўсиши, балки уларнинг энг замонавий интеллектуал билимларга эга бўлган, уйғун ривожланган инсонлар бўлиб, XXI аср талабларига тўлиқ жавоб берадиган баркамол авлод бўлиб вояга етиши учун зарур барча имконият ва шароитларни яратишни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйганмиз”¹.

¹ Исломов З.М. Давлат ва хуқуқ назарияси. –Т.: Адолат, 2007, Б.567.



О‘ЗБЕКИСТОННИНГ ENG YANGI TARIXINI O‘RGANISHNING SIYOSIY VA IJTIMOIY, ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

N.Najmiddinova. Navoiy viloyati Qiziltepa tumaniga qarashli
1 umumiy o‘rta ta’lim maktabi Tarix fani o‘qituvchisi

Annotasiya: maqolada O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganishning metodologik asoslari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, eng yangi tarix, ilmiy-nazariy metodologiya, siyosat, ijtimoiy, ilmiy, amaliy, mustaqillik, iqtisodiyot, taraqqiyot, integratsiya, jarayon, manbaviy asos, qiyoslash, taqqoslash

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatlili, olam-u odam taqdiriga daxldor bo‘lgan dunyoviy muammolar-u serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo‘lgan barcha hodisalarni o‘zida mujassam etadi.

Tabiiyki, bunday yalpi yangilanishlar jarayoni ijtimoiy-gumanitar fanlar qatorida tarix fani oldiga ham yangi vazifalar qo‘yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqimizning mustaqillikka erishish yo‘lidagi asrlar osha olib borgan tinimsiz kurashini, uni qo‘lga kiritish yo‘llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, mustaqillikni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy omillarini o‘rganish va milliy g‘oyani yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mushohada qilmoqlari lozim. Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazadi, milliy g‘oyaning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Milliy ong, milliy tafakkur xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog‘li o‘rganish, undan saboq chiqarish bilan bog‘liq. Ulug‘ allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga da’vat etadi, ulkan yaratuvchilikni rag‘batlantiradi. Zotan, uning ulug‘ murabbiylik, tarbiyachilik, yo‘naltiruvchilik qudrati ham xuddi ana shunda.

Insoniyat tarixida XX asrning so‘nggi choragi va – XXI asr boshi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning yangi pallasini boshlab berib, O‘zbekistonning milliy davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi aynan shu davrga to‘g‘ri keldi. Bu holat tarix fanida ham tub o‘zgarishlarni, nazariy va metodologik yangilanishni, bir so‘z bilan aytganda mustaqil O‘zbekiston nufuziga munosib bo‘lishni taqozo qildi. Mustaqillik yillarida tarix fani arsenali yangilanib, o‘zgardi. Tarix fanida kechgan chuqur ichki transformasiya jarayoni fanning nazariy-metodologik, konseptual, mazmuniy, strukturaviy o‘zgarishlarida aks etdi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi tarix fanida ana shunday yangi ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Bu bevosita milliy mustaqil davlatning tashkil topishi bilan vujudga kelib, zamonaviy tarixiy jarayonlarning rivojini o‘rganish, tahlil qilish, tarixiy tajribani umumlashtirish va bu orqali milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgandir.

Bozor munosabatlari qaror topib, tadbirkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilayotgan mustaqillik sharoitida an’anaviy hunarmandchilik sohasini qayta tiklash, uni milliy asosda yangidan rivojlantirish jarayonlarini o‘rganish tarixchilarning tadqiqot ob’ektiga aylandi.

Mustaqillik davri ijtimoiy jarayonlarini turli jihatlarini ma’lum xronologik doirada o‘rgangan tadqiqotlar vujudga keldi. O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li ta’lim tizimini isloh qilishni taqozo qildi. Bu sohada O‘zbekiston o‘z milliy strategiyasini ishlab chiqib, ta’lim tizimini isloh qilishning o‘ziga xos yo‘lidan bordi. Ta’lim tizimidagi islohotlar jarayoni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi natijasidata’limning uzluksizligi, umumta’lim va professional ta’limning chuqurlashib borishini yorituvchi, shuningdek O‘zbekistonda ilm-fan rivojlanishi holati va taraqqiyot yo‘nalishlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi o‘rganish O‘zbekistonning sovet davri va mustaqillik yillaridagi tashqi aloqalari tarixini qiyosiy tahlil etish orqali bu soha rivojida muhim o‘rin tutgan omillarni aniqlash va tarixiy jarayonlarni umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

O‘zbekistonning mustaqillik davri masalalarini o‘rganishda faylasuflar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, sosiologlarning izlanishlarini e’tirof etgan holda, ularning tadqiqotlarida mujassamlashgan ma’lumotlar va xulosalarni tarixiy tadqiqotlarga jalb qilish asnosida,



fanlararo yondoshuvga asoslangan O'zbekistonning eng tarixini yaxlit yorituvchi asarning yaratilishi fursati yetdi. Bu asar jamiyat tarixiy tafakkurida mamlakatimizning dunyoda munosib o'ringa egaligi va O'zbekiston tarixi umumjahon tarixiy jarayonlarining ajralmas bir qismi ekanligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jo'raev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Uchinchi kitob. - T.: Sharq, 2010.
2. Quvvatov N. O'zbekistonda o'tish davri va jamiyat taraqqiyoti. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
3. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. - T.: O'zbekiston, 2001. - 368 b.
4. Levitin L., Karlayl D. Islom Karimov - Yangi O'zbekiston Prezidenti. - T.: O'zbekiston, 1992.
5. Mavlanov O', Abduvasitova I. Tarixiy-madaniy meros - milliy g'oyani anglash omili. - Toshkent: Akademiya, 2014.
6. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. - T.: Akademiya, 2008. - 232 b.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000